

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI

FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

Tarix yo`nalishi 14.34-guruh bitiruvchisi
Anvarov Doniyor Bahodir o`g`lining

**“Boburnoma – Farg`onaning XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi
tarixiga oid muhim manba sifatida”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

t.f.n. R.A.Arslonzoda

Farg`ona - 2018

Bitiruv malakaviy ish tarix kafedrasining 2018-yil ____-____dagi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

t.f.n. S.Mirsoatova

Taqrizchi:

FarDU qoshidagi AL
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası mudiri:

U.Paxriddinov

Mundarija

Sah

Kirish.....	4-8
I bob. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning “Boburnoma” asari.....	9-33
1.1. Buyuk sarkarda va davlat arbobi: Boburning hayot yo`li.....	9-16
1.2. Boburning adabiy va ilmiy merosi.....	16-24
1.3. “Boburnoma”: uning yaratilishi, mazmuni, nashrlari.....	24-33
II bob. “Boburnoma”da Farg`ona tarixining yoritilishi.....	34-60
2.1. “Boburnoma”da Farg`ona vodiysining jug`rofiy tavsifi.....	34-45
2.2. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Farg`onada kechgan siyosiy jarayonlarning “Boburnoma”da aks etishi.....	45-57
2.3. “Boburnoma”da Farg`onaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma`lumotlar.....	57-60
Xulosa.....	61-62
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxati.....	63-64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz oldida ulkan vazifalar ko'ndalang bo'ldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik jamiyat, huquqiy davlat asoslarini barpo etish ana shunday vazifalar sirasiga kiradi. Mamlakatimiz taraqqiyotining ana shunday burilish nuqtasida xalqning o'z tarixiga bo'lgan qiziqishi ortdi, zero bunday pallada xalq o'z o'tmishini chuqurroq bilishga, tarixdan ma'naviy kuch olishga ehtiyoj sezmoqda.

Tarix fanini yangi zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish birinchi navbatda uning manbaviy bazasini boyitish va mustahkamlashni taqozo etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil iyul oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorda barcha "arxeologik va yozma manbalarni to'plash va ularni ilmiy-qiyosiy tarzda tahlil etish hamda bir tizimga solish zarur"ligi qayd etilgan¹.

Mustaqillik yillarida yozma tarixiy manbalarni topish, o'rganish, tarjima qilish va nashr etishga ahamiyat berilmoqda. Natijada xalqimizning ming yillik tarixini o'zida aks ettirgan ko'p yozma manbalar², shu jumladan memuar adabiyotlar³ nashr qilinib, o'quvchilar hukmiga havola etildi.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ilmiy tadqiqotlarda memuar manbalardan foydalanishga yetarli e'tibor berilmayapti. Vaholanki, O'zbekiston tarixinig deyarli barcha davrlariga taalluqli bo'lgan memuar adabiyotlar mavjud. Memuar adabiyotlar tarixiy manbalarning alohida guruhini tashkil etadi. Boshqa tarixiy adabiyotlardan farqli o'laroq, memuar adabiyotlar, ya'ni esdaliklarda o'tmishning jonli lahzalari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Esdaliklar ko'p holatlarda boshqa manbalarda uchramaydigan original ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi bois o'tmishning to'liq manzarasini yaratishda muhim o'rin tutadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institute faoliyatini takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyul qarori// Xalq so'zi. 1998.27-iyul.

² Xalq so'zi. 1998.27-iyul.

³ Boburnoma. -T.: Yulduzcha.1993; Гулбаданбегим. Хумоюннома. -Т., Фан, 1998; Мирзо Хайдар. Тарихи Рашидий. -Т.: Фан, 1996.

Shuni e'tiborga olgan holda, biz bitiruv-malakaviy ishimizda buyuk davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli yirik memuar asarining Farg'ona vodiysisini o'rganishda muhim manbaviy ahamiyatini tahlil etishni qaror qildik. Biz "Boburnoma"da Farg'ona vodiysining XV asrning oxiri – XVI asr boshlaridagi hayotining keng manzarasini aks ettiramiz. Shuning uchun, bu mavzuni maxsus tadqiq etish dolzarb mavzulardan biridir.

Mavzuning ilmiy jihatdan o'rganilish darajasi. Memuar manbalarning manbaviy ahamiyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'p emas. 1959-yilda Moskvada chop etilgan M.N.Chernomorskiyning "Мемуары как исторический источник" nomli kitobida⁴ memuar manbalar – esdaliklar, kundaliklar va xatlarning tarixiy jarayonlarini o'rganishdagi roli, ularning manba sifatidagi ijobiy va salbiy tomonlariga batafsil to'xtalib o'tilgan. Ammo bu asar sovet davrida yozilgan bo'lib, unda O'zbekiston tarixiga oid bo'lgan memuar manbalar xususida so'z yuritilmaydi.

O'zbekiston tarixiga oid memuar adabiyotlar ma'lum darajada tadqiq etilgan asar – bu B.V.Lunin tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan "История Узбекистана в источниках"⁵ nomi to'plamlaridir. Ushbu to'plamlarda muallif turli davrlarda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus va Yevropa elchi va sayyohlarining esdaliklari va safarnomalarini tahlil etadi.

Memuar adabiyotlarning O'zbekiston tarixi, jumladan temuriylar davri tarixini o'rganishdagi ahamiyati xususida B. A. Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" nomli o'quv qo'llanmasida, N. Madraimov va G. Fuzailovalarning "Manbashunoslik" deb nomlangan darslik kitobida, shuningdek R. Arslonzodaning "Manbashunoslik" faniga oid muammoli ma'ruzalar matnida ayrim fikr va mulohazalar bayon qilingan⁶. Ammo biz tanlagan mavzu – Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli memuar asari bu nashrlarda to'liq tahlil etilmaydi.

⁴ Черноморский М.Н. Мемуары как исторический источник. -Москва. 1959.

⁵ История Узбекистана в источниках: Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX в. -Т: Фан, 1998.

⁶ Ахмедов. Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари: Қадимги ва ўрта асрлар. -Т.: Шарқ, 2001;

Mavzuga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si tarixiy manba sifatidagi ahamiyati mukammal o'rganilmagan.

Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi va uning ilmiy jihatdan to'liq o'rganilmaganligi uni mazkur bitiruv – malakaviy ishning mavzusi etib tanlashga turtki bo'ldi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv – malakaviy ishimizda qo'ygan asosiy maqsadimiz atoqli davlat arbobi va olim Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli memuar asarining XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Farg'ona tarixini o'rganishdagi tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- ✓ Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li va uning "Boburnoma" nomli memuar asari haqida ma'lumot berish;
- ✓ "Boburnoma"dagi Farg'ona vodiysi xo'jalik hayotiga oid ma'lumotlarni bir tizimga solish va tahlil etish;
- ✓ Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"siga asoslangan holda Farg'ona vodiysining ijtimoiy-siyosiy hayoti manzarasini tiklash, bu yerdagi ijtimoiy zulm va adolatsizlikni ko'rsatish;
- ✓ "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Farg'ona vodiysining madaniy hayot – adabiyot, ilm-fan, musiqa va san'atning holatiga nazar tashlash, bu sohadagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib o'tish;
- ✓ Bu davrda vodiylar aholisining iqtisodiy va maishiy turmushiga doir ma'lumotlarni tahlil etish;
- ✓ "Boburnoma"ning manbaviy ahamiyati haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish.

Manbalar tavsifi. Bitiruv – malakaviy ishni yozishda biz asosan Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”siga tayandik. Ushbu memuar asar koʻp marotaba nashr etilgan. Biz “Boburnoma” ning 1990-yilda oʻzbek tilida nashr qilingan qismidan⁷ foydalandik. Bundan tashqari biz “Bobur ensiklopediyasi”dan⁸, S.Jalilovning “Bobirning Fargʻona davlati”⁹, “Bobir va Andijon”¹⁰, “Andijon”¹¹, “Bobur haqida oʻylar”¹², S.Hasanovning “Zahiriddin Muhammad Bobur”¹³ kitobidan, Z.Mashrapov va S.Shokarimovlarning “Anda jonim qoldi mening...” maqolasidan¹⁴ ham foydalanildi. Bu manbalar “Boburnoma”dagi ayrim lavhalarni yanada aniqroq tushunishga yordam berdi.

Bitiruv-malakaviy ishning davriy chegarasi. Mazkur ishimizning xronologik chegarasi XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarini oʻz ichiga oladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida Fargʻona vodiysi tarixining aynan shu davr voqealari haqida hikoya qilinadi. Bu davr Temuriylar hukmronligining soʻnggi pallasi boʻlib, davlat jiddiy siyosiy va ijtimoiy muammolar girdobiga tortilgan edi. Ijtimoiy, madaniy qoloqlik, ichki siyosiy ziddiyatlar, tashqi koʻchmanchi xalqlarning bosqinlari va xalq ommasining shafqatsizlarcha zulm qilinishi oxir-oqibatda davlatning zavolga yuz tutishiga olib keldi.

Ishning ilmiy jihatdan yangiligi va amaliy ahamiyati. Shu kunga qadar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si tarixiy manba sifatida koʻp marotaba maxsus tahlil qilingan boʻlsa-da, aynan Fargʻona vodiysi haqidagi maʼlumotlar bitta kitobda jamlanmagan edi. Biz oʻz imkoniyatimiz doirasida “Boburnoma”ning Fargʻona tarixiga oid maʼlumotlarni qoʻlimizdan kelgancha yagona yaxlit holga keltirishga jazm etdik.

⁷ Бобур З.М. Бобурнома. -Т.: Юлдузча, 1990.

⁸ “Бобур энциклопедияси”. -Т.: Sharq, 2014.

⁹ Жалилов. С. Бобирнинг Фарғона давлати. -Т.: Фан, 1995.

¹⁰ Жалилов. С. Бобир ва Андижон. -Т.: Ўзбекистон, 1993.

¹¹ Жалилов. С. Андижон. -Т.: Ўзбекистон, 1989.

¹² Жалилов. С. Бобур ҳақида ўйлар. -Т.: Шарқ, 2006.

¹³ Ҳасанов С. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. -Т.: Ўзбекистон, 2011.

¹⁴Машрапов З. Шокаримов С. “Анда жоним қолди менинг...”(Бобурнинг Фарғона мулкани тарқ этиши)// Андижоннома 1996.11-июнь.

Bitiruv-malakaviy ishimizning amaliy jihatida shundan iboratki, unda bayon qilingan fikr va xulosalar bizni “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini teran idrok etishimizga, ulardan ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanishimizga yordam beradi. Bitiruv-malakaviy ishimizdada keltirilgan ma`lumotlardan umumiy o`rta ta`lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o`quv yurtlarida O`zbekiston tarixi va manbashunoslik fanlarini o`qitishda foydalansa bo`ladi.

Bitiruv-malakaviy ishnining tuzilishi. Mazkur bitiruv-malakaviy ish kirish, ikkita bob, oltita paragraf, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I bob. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning “Boburnoma” asari

1.1. Buyuk sarkarda va davlat arbobi: Boburning hayot yo`li

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zbek madaniyati va ma`naviyatining ko`zga ko`ringan davlat arbobi, iste`dodli sarkarda, buyuk shoir, tarixchi va geograf, o`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, bir so`z bilan aytganda qomusiy olim sifatida shuhrat qozongan shaxsdir. Zahiriddin Muhammad Bobur XV asr oxiri – XVI asr boshlarida temuriylarning Farg`onadagi so`nggi yirik vakili sifatida yurt mustaqilligini saqlab qolishda faol jonbozlik ko`rsatgan. Ma`lum ma`noda bu harakatlari bilan Farg`ona vodiysidagi hayotni nisbatan yaxshilashga yordam bergan. Uning o`z asarlarida xalqimizning tarixi jahon madaniyatiga qo`shgan hissasida o`z aksini topgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ibn Umarshayx Mirzo 1483-yili 14-fevralda Farg`ona viloyatining markazi Andijon shahrida tug`ilgan.

Uning otasi Umarshayx Mirzo temuriyzoda Sulton Abusaidning to`rtinchi o`g`li bo`lib, Farg`ona viloyatining hukmdori bo`lgan. Umarshayx 1455-yilda Samarqandda tug`ilib, 1494-yilda Axsida fojiali tarzda vafot etgan. “Boburnoma”da yozilishicha, u yaxshi savodli kishi bo`lib, “Xamsa” va “Masnaviy” kitoblarini ko`p mutolaa qilar ekan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Umarshayx Mirzo haqida “Boburnoma”da shunday degan: “Chun Umarshayx Mirzo baland himmatliq va ulug` doiyaliq podshoh erdi... Sulton Abusaid Mirzo avval Kobulni Umarshayx Mirzog`a berib, Bobon Kobuliyni bek atka qilib, ruxsat berib edi... ul munosabat bilakim, Temurbek ulug` Umarshayx Mirzog`a Farg`ona viloyatini bergandur. Andijon viloyatini berib, Xudoyberdi Tug`chi Temurtoshni¹⁵ bet atka qilib yibordi.

¹⁵ Xudoyberdi Tug`chi Temurtosh – Umarshayx Mirzoning bekatkasi va amiri. U bu paytda yigirma besh yoshda bo`lgan. Ibrohim Bekchij bilan bo`lgan jangda vafot etgan. Бобур энциклопедияси. -Т.: Sharq, 2014. Б. 550.

Hanafiy mazhablik, pokiza e'tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog'a irodati bore di... Aksar "Shohnoma" o'qur edi.

Uch masofa urush qilib edi. Avval Yunusxon bila Andijonning shimol tarafida Sayxun daryosining yoqasida Takasekretku¹⁶ degan yerda ...Yana Turkistonda Aris suyi yoqasida ...Yana bir Sulton Ahmad Mirzo bila Shohruxiya va O'ratepa orasida Xavos degan kentta urushib mag'lub bo'ldi".¹⁷

Biz bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, Umarshayx Mirzo haqida to'liq ma'lumotlarni faqat "Boburnoma"dan olamiz. Chunki, Umarshayx Mirzo o'z davrida yuqori darajada tarix sahnasida qatnashmagan edi. Umarshayx Mirzoga Farg'ona viloyatini topshirishni otasi Abusaid Mirzo Amir Temurga taqlidan amalga oshirganini ham faqat shu kitobdan bilishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur otasini dindan boxabar inson ekanligini ta'kidlab o'tganini yuqorida ko'rdik. "Shohnoma" o'sha davrda ham hukmdorlar orasida tarqalganini aynan Bobur yozgan. Bobur otasi Umarshayx Mirzoni uch marta urush qilganini ham biz faqatgina shu manba asosida bilishimiz mumkin xolos.

Uning onasi Qutlug' Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning ikkinchi qizidir. Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy naslidadir. Qutlug' Nigorxonim Umarshayx Mirzodan ikki farzand ko'rgan: Xonzodabegim va Zahiriddin Muhammad Bobur. O'n bir yoshida Farg'ona taxtiga o'tirgan o'g'lining davlat ishlarida yordam bergan. Qutlug' Nigorxonim Bobur Qobulni olgan yili vafot etgan edi. Bu haqda "Boburnoma"da shunday keltirilgan: "Mening volidam – Qutluq Nigorxonim edi, aksar qazoqliklarda va fatoratlarda mening bilan birga edilar. Kobulni olg'ondin besh-olti oy so'ngra tarix to'qqiz yuz o'n birda tengri rahmatiga bordilar".¹⁸

¹⁶ Takasekretku (Takasekrigan) – Siradyo o'zanining toraygan qismi (nomi hatto taka u sohilidan bu sohiliga qarab o'ta oladigan darajada tor degan mubolag'adan kelib chiqqan). //Бобур энциклопедияси. -Т.: Sharq, 2014. Б. 482.

¹⁷ Бобурнома. Юлдузча, 1990. Б. 9,10,11.

¹⁸ Ўша жойда. Б. 13.

Qutlug` Nigorxonim Qobuldagi Bog`i Navro`ziyga dafn qilingan. Garchi o`g`lining mohir sakarda, Temuriylar sulolasining davom ettiruvchisi, yirik saltanat o`rnatganini ko`rish baxtiga muyassar bo`lmasa-da, Qutlug` Nigorxonim dunyo tarixiga buyuk farzand yetkazib bergan tarixiy shaxsdir. Nihoyatda og`ir va qiyin damlarda ham o`g`lining yonida bo`lgan Boburning qalbida hayotga va odamlarga nisbatan mehr-muhabbat hissini mustahkamlagan.

Ana endi shundan kelib chiqib o`z fikrimizni bildiradigan bo`lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur ikki buyuk sulolaning nikohidan dunyoga kelgan farzanddir. Aynan shu holat Zahiriddin Muhammad Boburning bobosi Amir Temur taxtiga munosib vorisligini ko`rsatib beradi. Chunki, Amir Temurdan oldin bu hududlarni Zahiriddin Muhammad Boburning onasi tomondan bo`lgan Chingiziylar boshqargan edi. Bu esa yana bir bor Zahiriddin Muhammad Boburni bu hududning boshqalarga nisbatan qonuniy vorisi ekanligini anglatadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ota-onasidan keyin uning opa-ukalari haqida ma`lumot berishga to`xtadik. “Boburnoma”da bu haqda shunday deyilgan: “Uch o`g`ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o`g`lonlaridin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim;mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Yana bir o`g`ul Jahongir Mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo`g`ulning tuman beklaridin edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o`g`ul Nosir Mirzo edi, onasi andijonlik edi, g`unchachi edi, Umid otliq. Mendin to`rt yosh kichik edi.

Bori qizlaridin ulug` Xonzodabegim edi, mening bila bir to`qqon erdi, mendin besh yosh ulug` erdi. ...Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi, bu dag`i Nosir Mirzo bila bir to`qqon erdi, mendin ikki yosh ulug` erdi.

Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag`i Nosir Mirzo bila bir to`qqon erdi, mendin sekkiz yosh kichik erdi.

Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og`a sulton otliq g`unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Mahdum Sultonbegim edi”.¹⁹

¹⁹Ўша жойда. Б. 11,12.

Bu ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, Umarshayx Mirzo o'zidan sakkiz nafar farzand qoldirganligi ko'rinib turibdi. Bundan tashqari bu davrda ham hukmdorlar orasida ko'p xotinlik urf bo'lganligi a'yon bo'lyapti. E'tibor bilan qarasak, Umarshayx Mirzoning besh nafar xotinidan ikkitasi mo'g'ulning xonzodalaridanligi sezilib turibdi. Bu esa, o'sha davr hayotida ham ulug' xonadonlar bilan nikoh tuzish urf bo'lganligini ko'rsatib beradi.

Yuqorida biz Xoja Ubaydulloh Ahror Umarshayx Mirzoning piri ekanligini bilib oldik. Shuning uchun ham Umarshayx Miroz birinchi o'g'il farzand ko'rganida ism qo'yib berishni piri Xoja Ahrordan iltimos qilgan va ustoz chaqaloqqa “Zahiriddin Muhammad” deb ism qo'ygan.²⁰ Bobur barrcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” laqabini oladi. Otasi Umarshayx Mirzoning ko'p ijobiy fazilatlari – savodxonligi va saxiyliги, oliyhimmatligi va eng muhimi, ibodatli, e'tiqodlilik kabi fazilatlari yoshligidanoq Bobur tarbiyasida o'z aksini topgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yoshlikdagi piri-ustozі Xoja Mavlonoyi Qozi Abdulloh²¹ edi. Bu zot islom tarixidagi dastlabki to'rt xalifa (“chahoryor”lar) avlodlaridan Burhoniddin Qilich naslidan bo'lgan.

Ulug' mutasavvuf olim bo'lmish Xoja Mavlonoyi Qozi Umarshayx Mirzoning mudhish o'limi yuz bergan tahlikali kunlarda Boburga rahnamolik qilgan, o'n ikki yoshli tajribasiz podshohni g'animlardan saqlab, to'g'ri yo'lga yetaklagan va ko'nglini ko'tarib yaxshi maslahatlar bergan, keyinchalik ham unga ustozlik qilgan zot edi. Bobur podshohligining dastlabki yillarida Andijon bir gala dushman qurshovida qolib, xalqi ochlikka mahkum etilganda, piri Xoja Mavlonoyi

²⁰ Бобур энциклопедияси. -Т.: Sharq, 2014. Б. 105.

²¹ Xoja Mavlonoyi Qozi – Shayx Burhoniddin Qilichning avlodi, ona tarafidan esa shajarasi Sulton Ilik Moziyga borib taqalgan Uning ajdodlari Farg'ona viloyatida eng ishonchli va nufuzli kishilardan, jumladan, shayxulislom bo'lib kelgan. //Бобур энциклопедияси. -Т.: Sharq, 2014. Б 542.

Qozi Boburga madad bo`lish uchun o`n sakkiz mingta qo`yni so`yib qurshovdagilarga tarqatgan. Bobur ham o`z xotiralarida uni dastlabki ustoz sifatida esga oladi. Afsuski, 1498-yili Bobur Samarqanddan Andijonga yetib kelguncha g`animlar uni o`ldirib yuboradilar.

Kechgan voqealar tafsilotining guvohlik berishicha, Bobur Hindistonda ekanida ham Andijon va Samarqanddagi ustozlari bilan aloqani uzmagani. “Boburnoma”da 1528-yil 19-dekabrda Movarounnahrda kelgan mehmonlar sharafiga poytaxt Agrada uyushtirilgan shohona mehmondorchilik – ziyofat tafsiloti berilgan. Unda Samarqand, Farg`ona va Andijondan taklif qilingan Xoja Valiy avlodlari ham bor edi. Bobur ularga qimmatbaho sovg`alar hadya qilgan.

Bobur u o`ziga pir deb bilgan shaxs Said Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy – “Mahdumi A`zam” nomi bilan mashhur bo`lgan islom olimlaridandir.

Bobur otasi yo`lidan borib, mashhur so`fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo`yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e`tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, “Boburnoma” asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni qiyin holatlardan xalos etgani, eng og`ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta`kidlaydi.

Boburning hayotiga nazar tashlab shuni tushinish mumkinki, shayxulislom va pirlarga e`tibor kuchli bo`lganligini bilib olishimiz mumkin. Bu an`ana bizni hududda asosan, Sharq uyg`onish davridan boshlanganligi bizga sir emas. Bu an`ana hattoki, Zahiriddin Muhammad Bobur davrida va undan keyingi davrlarda ham davom etgani bunga yaqqol misoldir. Shundan kelib chiqib chiqib aytishimiz mumkinki, o`lkamizda islom dini ulamolariga hukmdorlar tomonidan juda katta e`tibor berilganiga shubha qilmasak ham bo`ladi.

Bobur 1488-yilda, besh yoshida, oilasi bilan Samarqand hokimi, amakisi Sulton Ahmadning termizlik Xonzodabegimga uylanish marosimiga keladi. Shu paytlarda Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, uni Sulton Ahmadning

qizi Oyisha Sultonbegimga o'sha davrning urf-odatlariga ko'ra unashtirib qo'yishgan.²²

1494-yilda Boburning otasi Umarshayx Mirzo Axxi qo'rg'onidagi kaptarxona jarga qulab tushishi oqibatida vafot etadi. Yoshgina Bobur Farg'ona hokimiyatini boshqara boshlaydi. Bobur katta va notinch viloyatni boshqarish yo'lida ancha urinadi, Andijon atrofidagi ba'zi shaharlarga yurishlar tashkil qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning dastlabki siyosiy maqsadi bobosi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatni saqlab qolish va mustahkamlash edi. Bu paytda qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494-yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi. Buning sababi shu ediki, qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysug'ur Mirzo taxtga o'tiradi. Bu vaziyatdan foydalangan Zahiriddin Muhammad Bobur 1495-1496-yillarda Samarqandga ikki marta yurish qiladi. Lekin, uning bu ikki yurishi ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Vanihojat, 1497-yilning kuzida Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand atrofidagi bir qancha qishloqlarni va yetti oylik qamaldan so'ng azaliy orzusi bo'lmish Samarqand shahrini egallaydi. Shahar qamalda qolganligi uchun nihoyatda og'ir kunlarni boshdan kechirayotgan edi. Hatto, qo'shinni ta'minlashda ham qiyinchiliklarga uchraydi. Navkarlardan ayrimlari Andijon va Axxiga qochib ketadilar. Buning ustiga Andijondagi ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni vaqtda og'ir xastalikni boshdan kechirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qilgan. Sultonali Mirzo esa, taxni egallaniga qaramay 1499-yili kaltabinlik bilan Samarqand shaharni Shayboniylarga jangsiz topshiradi. Biroq, shahar aholisi chaqirig'i bilan Bobur

²² Ўша жойда. Б. 106.

Samarqandga 1500-yilning kuzida kelib, Shayboniyxon tomonidan shaharda qoldirilgan 600 askarini qirib tashlagan. 1501-yili aprelda Saripulda bo'lgan jangda Bobur yengiladi va Samarqandga chekinadi. Ammo, ilojsizlikdan 1501-yilning ikkinchi yarmida Samarqandni tark etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand uchun oxirgi marta 1503-yili Toshkent xoni Mahmudxon va qalmoqlarning birlashgan qo'shini bilan Shayboniyxonga qarshi yurush qiladi. Bu safar ham Sirdayo bo'yidagi jangda ittifoqchilar tor-mor etiladi. Ayni shu damda Ahmad Tanbal Andijonda hokimiyatni o'z qo'lga olgan edi. Shuning uchun oxirgi najot uchun Farg'onaga qaytib 1501-1503-yillarda Andijon uchun kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to'xtovsiz urushlari va og'ir soliqlardan charchagan xalq Zahiriddin Muhammad Boburni qo'llab-quvvatlamagan edi. Shuning natijasida, Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ldi.

Shundan keyin Zahiriddin Muhammad Bobur 1504-yili 200-300 askari bilan Hisor tog'lari orqali Qobulga o'tadi. Qobuldagi yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'aznani va Qobulni egallaydi. Bobur Qobulni egallagach, mustaqil davlat davlat tuzishga astoydil bel bog'laydi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Nafaqat Qobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurtiga qaragandek qaragan, qurilish, obodonlashtirish, kasbu-hunar va yana bir qancha sohalarni rivojlantirish ishlarini amalga oshirgan. 1507-yilning boshlarida Bobur Hindistonga²³ dastlabki yurishini amalga oshiradi. Biroq, bu Hindiston yurishi mavaffaqiyatsiz tugab, Qobulga qaytadi.

Shayboniyxon 1510-yilda Eron shohi Ismoil I Safaviy bilan Marvda bo'lgan jangada halok bo'ladi. Bobur shoh Ismoil bilan ittifoq tuzib, 1511-yilning oktabrida oxirgi marta Samarqandni egallaydi. Lekin, Boburning shia mazhabidagi eronliklarning ko'rsatmasi bilan ish tutishi aholi orasida norozilik keltirib chiqaradi.

²³ Ўша жойда. Б 108.

1512-yilning 28-aprelida Bobur Ko'li Malik jangida shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. 1512-yilning kuzida Bobur shoh Ismoil jo'natgan Najmi Soniy bilan birlashadi. Bu ittifoqchilar 1512-yilning 24-noyabrida G'ijduvon jangida shayboniylardan yengiladi. Aynan shu voqeadan keyin Bobur Movarounnahni egallash xohishidan butunlay umidini uzadi va butun e'tiborini Hindistonga qaratadi.

1519-yilning bahoriga kelib Bobur Hindistonni egallash rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keying 5-6 yil mobaynida bir necha yurishlarni uyushtiradi. Vanihoyat, 1526-yilning 21-aprelida Panipat jangida asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini o'n ikki ming askari bilan tor-mor etadi. Natijada, Bobur Dehlini egallashga muvaffaq bo'ladi. Agrani o'ziga poytaxt etib belgalaydi. Bu yerda ham xuddi Afg'onistondagidek ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukmronlik qilgan boburiylar sulolasiga asos soladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida 47 yoshida o'zi asos solgan davlat poytaxti Agrada vafot etadi va o'sha yerga dafn etiladi. Keyinchalik 1540-yili vasiyatiga muvofiq xoki Qobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan "Bog'i Orom"ga qo'yiladi.

1.2. Boburning adabiy va ilmiy merosi

O'tmishda adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Zahiriddin Muhammad Bobur har doim olimu-fuzalolar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu-hunar sohillariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga mehrli munosabati aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillarida boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ishlar bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Bular orasida uning she'riy devoni, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin”, Risolai volidiya” (tarjima), “Musiqqa ilmi” va “Harb ishi” kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari jahon adabiyoti, madaniyati va san'atiga beqiyos hissa bo'lib qo'shilgan.

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun dunyoga tanitga qomusiy shoh asardir. U nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o'rin egallab kelmoqda. Biz “Boburnoma” asari haqida keyingi paragrafda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning yana bir buyuk asarlaridan biri bu “Mubayyin”dir. Bu asarni “Mubayyan”²⁴ deb ham atashadi. Bu asar islom dini aqidalari va fiqh (shariat qonunchiligi)ga oid asardir. XVI asr o'zbek adabiyotining nodir namunalaridan biri, shariat ahkomi haqida o'zbek tilida bitilgan yagona yirik nazmiy asardir. O'zi mubayyin so'zining ma'nosi arabchada - (yo'l) ko'rsatkich; mubayyan – bayon qilingan degan ma'nolarni anglatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Mubayyin” asarini o'g'illari Humoyun va Komronga bag'ishlab, Abu Hanifa (hanafiylik) mazhabiga oid manbalar asosida mahorat bilan, sodda va tushunarli tilda yozgan.

“Mubayyin” islom dinining besh asosiy ruknini sharhlashga bag'ishlangan besh kitobdan iborat bo'lib, har bir kitob basmala bilan boshlanadi. Jami 2254 bayt. Birinchi kitobi “E'tiqodiya” deb nomlanadi va 296 baytdan iborat. Kirish qismi Allohga hamdu-sano, Muhammad (s.a.v.)ning na'ti, “Kitob nazmining sababi” va “Besh farzning te'dodi (sanog'i)” bilan boshlanadi. Keyin iymon shartlari to'liq bayon etiladi. Ularning birma-bir sharhi, Allohning subutiy sifatlarining tafsili (hayot, ilm, irodat, qudrat, eshitish va ko'rish, kalom, taqdirga ishorat) va yana boshqa kalom hamda aqida ilmiga oid tushunchalar beriladi.

Ikkinchi kitob “Kitob us-saloat” deyilad va bu kitob o'zida 980 baytni jamlaydi. U namoz haqidagi sha'riy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan. Dastavval, namoz farzining “bandadin Tengrig'a niyoz” ekanligi o'qtirilib, namoz

²⁴ Ўша жойда. Б 348.

farzlari sanaladi. Keyin esa, tahorat masalasi atroflicha yoritilib berilgan. Undan so`ng namoz vaqtlari, qibla, namozning niyati, farzi, sunnat, vojib, mustahab, adab, makruh, fosid, qiyom, qiroat, ruku, sajda, qa`da masalalari mufassal bayon qilingan. Besh vaqt namoz, musofirchilikdagi va kasallikdagi namoz, jamoat, juma, iyd, janoza, tarovih va nafl namozlarining o`qilishi borasida ham yetarli ma`lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda, “Iyd namozi bayoni” qismida fitr sadaqasi, qurbonlik qilish haqida ham batafsil sharh berilgan.

Uchinchi kitob “Kitob uz-zakot” deyiladi va 190 baytdan tashkil topgan. Bu asosan, zakot masalasiga bag`ishlangan. Bu kitobda zakot sharti, farzlari, sarflari, zakot berilmaydiganlar, ushr va xiroj masalalariga oid tushunchalar aniq va lo`nda bayon etilgan.

To`rtinchi kitob esa, “Kitobus-savm” deb nomlangan bo`lib, 165 baytdan tashkil topgan. Bu kitobda asosan, ro`za haqida so`z yuritiladi. Ro`za tutish niyati, ro`zani buzuvchilar, qazo va kaforat, ro`za tutishdagi shubhali amallar, ro`zani buzmaydigan hodisalar, man qilingan va qilinmagan amallar, e`tikof bayoni beriladi.

Vanihojat, beshinchi kitob “Kitobul-haj” deb nomlanadi. Ushbu kitobda so`nggi farz ya`ni, haj ibodatining tafsiloti haqida to`xtaladi va bu kitob o`zida 622 baytni jamlaydi. Bu qismdan haj va umra marosimlari haqida ma`lumotlar o`rin oladi. Asar xotima bilan yakunlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Mubayyin” asarini nazm nuqtai-nazaridan emas, balki diniy ma`lumotlar berish niyatida yozgan. U diniy arkonlar haqida ma`lumot berish bilan birga ma`lum ma`noda ularga oid o`z qarash, munosabat, bilim va ko`nikmalarini ham izhor qilib borgan.

Shuningdek, u juda ko`p manbalarni sinchkovlik bilan o`rganib chiqqani natijasida asar yuqori saviyada yozilib, mazmuni, maqsadi va g`oyasi, qamrov jihati bilan shu turdagi asarlardan ma`lum ma`noda ajralib turadi. Zahiriddin Muhammad Boburning fiqh masalalariga tegishli barcha nazariy mulohazalari

Burhoniddin Margʻiloniyning “Hidoya”, Imom Moturudiyning asarlariga²⁵ monand ravishda oʻz aksini topgan.

Kalom ilmiga oid maʼlumotlar asosan “Eʼtiqodiya” kitobida oʻz ifodasini topgan boʻlib, u kitobda asosiy eʼtibor olamning yaratilishi, yaʼni Allohning yaratuvchilik sifatlarini bayoniga bagʻishlangan. “Mubayyin”da berilgan jami 24 ta duo “Qurʻon” va hadislardan olingan.

Bu asarning biz uchun muhim jihati shundaki, aynan oʻsha davrlarda Movarounnahr va Xurosonda islom dini asoslariga bagʻishlangan asarlar asosan arab va fors tilida bitilar edi. Zahiriddin Muhammad Bobur esa ilmiy va ayni vaqtda, oʻziga xos ijodiy va badiiy uslubdagi talqinini oʻzbek tilida nazmda yaratgan edi.

Bu asar islomshunoslik va oʻzbek adabiyoti tarixida oʻzbek tilining chiroyi va boyligini oʻzida mujassamlashtirgan diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatida ham alohida oʻrin egallaydi.

“Mubayyin”ning qoʻlyozma nusxalari haqida maʼlumot beradigan boʻlsak, bu asar mashhur asarlar bilan bellasha oladi. Asarning bizgacha sakkizta qoʻlyozma nusxasi yetib kelgan:

1.Toshkent nusxasi I; 2.Berlin nusxasi; 3.Tehron nusxasi; 4.Sankt-Peterburg nusxasi; 5.Toshkent nusxasi II; 6.Toshkent nusxasi III; 7.Toshkent nusxasi IV; 8.Toshkent nusxasi V.

“Mubayyin”ning yuqorida sanalgan qoʻlyozma nusxalaridan tashqari F.Koʻpruluzoda oʻz shaxsiy kutubxonasida saqlanadigan yana bir qoʻlyozmasi haqida axborot bergan va uning Margʻilonda Kotib Iso Margʻinoniy²⁶ tomonidan koʻchirilganini qayd etgan. Lekin hozir bu asar nusxasi qayerda saqlanayotgani maʼlum emas.

Zahiriddin Muhammad Boburning yana bir ilmiy ijodi haqida maʼlumot beradigan yirik asarlaridan biri “Aruz risolasi”dir. Bu asar baʼzi nashrlarda “Muxtasar” va “Mufasssal” nomlari bilan ham keladi.

²⁵ Ўша жойда. Б. 349.

²⁶ Ўша жойда. Б. 350.

Ushbu asarning biz uchun ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, o'zbek va boshqa turkiy xalqlar she'riyati nazariyasi tarixida beqiyos ahamiyatga molik asarlardandir. Unda turkiy aruz nazariyasi boyitilgan va rivojlantirilgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" Alisher Navoiyning "Mezonul-avzon" asaridan keyingi o'zbek aruziga qo'shilgan eng katta hissasi bo'ldi. Turkiy adabiyot tarixi va aruz nazariyasini o'rganishdagi katta ahamiyatiga qaramay, bu asar qo'lyozma nusxalarining kamligi uchun uzoq vaqt davomida ilmiy va amaliy iste'moldan chetda qolib ketgan bo'lishi mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" ko'p yillik mehnat natijasidir. Bu risola uchun ma'lumotlarni yoshligidanoq to'plab borgan.

"Boburnoma"da risolaga qo'shish maqsadida Alisher Navoiy devonlaridan aruzning vaznlariga mos tegishli g'azal va baytlar tanlash bilan shug'ullangani eslangan: "Odina kuni, oyning yigirma uchida Alisherbekning to'rt devonidan buhur va avzon tartibi bila g'azallar va adabiyotkim, intixob qilinadur edi, itmomig'a yetdi".²⁷

Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur bu risolasini nafaqat o'zining shaxsiy ijodi orqali, balki o'zidan oldingi 73 turkiy va forsiy adabiyot vakillari ijodidlaridan ham foydalangan.

Bobur o'z risolasida aruzning deyarli barcha unsurlari izohlanib, har birining muvofiq va nomuvofiq tomonlari tahlil etilgan. Bu risolada Bobur aruz ilmi taraqqiyoti tarixida birinchi bo'lib 537 vaznni qamrab olganligi ham bu ijod namunasi naqadar yuksak saviyada ishlanganidan dalolat beradi.

Muallif o'zbek mumtoz poeziyasida qo'llanib kelgan 289 vazn bilan cheklanib qolmagan. Hatto, aruz fanini o'zi ixtiro qilgan 248 ta yangi vazn bilan boyitgan. Bunda muallif "Boburnoma"dagi kabi o'z ijodiga ham xolis yondashish prinsipiga amal qilib, ulardan faqat 58 tasi ta'bg'a muvofiqligini e'tirof etgan.

²⁷ Бобурнома. Б. 248.

Boburning bu asari adabiyotshunoslik hamda turkiy va forsiy adabiyot tarixi nuqtai nazarlaridan ham katta ahamiyatga molik hisoblanadi.

Shu ishlari qatori biz Zahiriddin Muhammad Boburning “Xatti Boburiy” deb nomlangan alifbosi haqida ma’lumotga ega bo’lamiz. “Xatti Boburiy” Bobur o’z davri uchun yaratgan yangi alifbo hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da bu haqda shunday degan: “Ushbu mahallarda boburiy xattini ixtiro qildim”.²⁸

Zahiriddin Muhammad Bobur bu shaxsiy alifboni o’z-o’zidan yaratib qolmagan. “Xatti Boburiy”ni arab alifbosi asosida yaratgan. Biz uchun eng muhim jihati shundaki, u o’zining ona tili tovushlari tizimiga mos alifbo yaratishni maqsad qilgan. Bu alifbo 29 harfdan iborat. Zahiriddin Muhammad Bobur Xurosonga tashrif buyurganida hirotlik mashhur ulamolardan Qozi Ixtiyor va Muhammad Miryusuf undan “Xatti Boburiy” alifbosini o’rgangan.

Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, Bobur bu alifboni shunday mahorat bilan yaratgani uchun qisqa muddat ichida boshqa insonlarga ham o’rganishga qulay bo’lganligini yuqoridagi fikrdan bilinib turibdi.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur o’zi yaratgan alifboda “Qur’on”ni ko’chirtirib, Makka va boshqa yirik shaharlarga jo’natgan.

Uning bir qo’lyozmasi “Al-Mus’hafin Boburiya” (Boburiy xattida ko’chirilgan “Qur’on”) nomi bilan ataladi. Hozirda Mashhad shimolidagi Imom Rizo yodgorlik majmuasi kitob fondida qo’lyozmasi saqlanadi. Uning nusxasi 2005-yilda Z.Mashrabov tomonidan O’zbekistonga olib kelinib, “Bobur va jahon madaniyati” muzeyiga topshirilgan.²⁹

Biz bu orqali shuni ta’kidlab o’tishimiz mumkin, bu xat asosan Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrdan tashqari yashagan joylarda keng tarqalgan.

“Risolai volidiya” asari haqida ma’lumot beradigan bo’lsak, Zahiriddin Muhammad Boburning forschadan o’zbekchaga tarjima asari hisoblanadi. Bu asar aslida Hoja Ahror qalamiga mansub asardir.

²⁸ Ўша жойда. Б. 144.

²⁹ Бобур энциклопедияси. Б. 536.

1528-yilning kuzida Boburning sogʻligi yomonlashadi, harorati koʻtarilib, isitmadan qiynaladi va ibodatni ham zoʻrgʻa amalga oshiradi. U kasallikdan tuzalish ilinjida Hoja Ahrorning “Volidiya” risolasini tarjima qilishga kirishib, Hojaning ruhi unga madad bersa, kasallikdan qutulishiga ishonadi. U bu haqda “Boburnoma”da shunday keltirgan: “Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettisida hazrat Hoja Ahrorning “Volidiya” risolasini nazm qilmoq hotiringʻa kechti. Hazratning ruhigʻa iltijo qilib, koʻnglumga kechurdimkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli boʻlur, xud nechukkim, sohibi “Qasidai Burda”ning qasidasi maqbul tushub, oʻzi aflaj marazidin xalos boʻldi, men dogʻi bu orizadin qutulub, nazmimning qabuligʻa dalile boʻlgʻusidir...”.³⁰

Bobur tez ishga kirishadi va har kuni 10 baytdan tarjima qilib, 10 kunda yakunlaydi va tez orada kasallikdan tuzalib ketadi. Bobur buni “Boburnoma”da quyidagicha eslagan: “Tengri inoyati bila, hazratning himmatidin, panjshanba kuni, oyning yigirma toʻqqizida andake afsurda boʻldi, oʻzga bu orizadin xalos boʻldum...”.³¹

Bobur bu asarni tarjima qilgan zahoti, Hindistonda yozgan sheʼrlari bilan qoʻshib koʻchirtirib, Humoyun va Komronga hamda eng yaqin kishilariga joʻnatgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarjimasi asl nusxasidan farq qiladi. Tarjima uch qismdan iborat – kirish, asosiy qism va xulosa. Shuningdek, asarda maʼrifat, tabiyat, nafs, mayl, kavniyat va Allohni tanish masalalariga tasavvuf nuqtai nazaridan baho berilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarjimasining oʻziga xos jihatlarini biz quyidagilarda koʻrishimiz mumkin:

1. “Volidiya” risolasining asosiy asl nusxasidagiga nisbatan aniqroq va yorqinroq bayon qilgan.

³⁰ Бобурнома. Б. 346.

³¹ Ўша жойда. Б. 346.

2. Asarning kirish va xulosa qismini Bobur o`zi yozgani sababli, asl nusxasidan farq qiladi. Negaki, Hoja Ahrorning asl matniga kirishi kerak bo`lgan xulosa mavjud qo`lyozmalarda uchramaydi.

3. Forsiy va o`zbekcha tarjima solishtirilganda Bobur ancha ishonchli va badiiy tarjima qilganini kuzatish mumkin, shu bilan birga ba`zi qismlar tarjimada tushirib qoldirilgan.³²

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bunga shuni qo`shimcha qilishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur o`z ona tili bilan bir qatorda fors tilini ham o`z davri uchun yaxshi o`zlashtirgan desak mubolag`a bo`lmaydi. Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiydan keyingi yuksak saviyadagi zullisonayn shoir desak ham bo`ladi.

Shu o`rinda bir narsani afsus bilan aytib o`tish o`rinlidir. Zahiriddin Muhammad Boburning “Musiqqa ilmi” va “Harb ishi” deb nomlangan asarlari hanuz topilgan emas.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi juda serqirra. Uning she`riyat nazariyasiga oid “Risolai aruz” kitobi o`zbek aruzi qonuniyatlarini aniqlashda Alisher Navoiyning “Mezonul-avzon” kitobi bilan barobar turadi. Bu ulug` ikki ijodkor o`zbek she`riyati nazariyasining asoslarini yaratibgina qolmay, bu fanning rivojiga ham hissa qo`shgan.

Boburning “Risolai volidiya” tarjima asari, garchi forsiy tildan tarjima qilingan bo`lsa-da, o`zbek kitobxoniga tasavvuf ta`limotining mohiyati bilan tanishuvda katta ahamiyatga ega. “Mubayyin” esa nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ulkan o`rin tutgan bir asardirki, uning qimmatini to`g`risida ko`p yozish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoirligi bilan birga islom dinining ruknlarini puxta egallagan. Uning asoslarini hanafiya mazhabi asosida sharhlari bilan bayon etgan yirik fiqhshunos olim hamdir. “Mubayyin”da ajdodlarimizning ma`naviy merosi orqali yuksak insoniy fazilatlarga ega bo`lgan

³² Бобур энциклопедияси. Б. 204.

insonni tarbiyalash, yoshlarni dinimiz asoslari orqali sogʻlom tafakkur va pok ahloqda targʻib qilish gʻoyalari oʻz ifodasini topgan. Boburning “Mubayyin” asari diniy-maʼrifiy, ilmiy-falsafiy, ahloqiy-taʼlimiy mazmunga ega boʻlganligi bois ham olim yashab ijod etgan muhitdagi dunyoqarash va eʼtiqod haqida toʻla maʼlumot beruvchi adabiy va diniy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarni diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatida tadqiq etish va uning maʼnaviy merosimiz tarixida tutgan oʻrnini aniqlash yosh tadqiqotchilarning dolzarb vazifalardandir.

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari oʻzbek tili tarixini oʻrganishda ham noyob manbalardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

1.3. “Boburnoma”: uning yaratilishi, mazmuni, nashrlari

“Boburnoma” jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik hisoblanishi bilan bir qatorda, oʻzbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar hamdir.

“Boburnoma”da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonda sodir boʻlgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil oʻta aniqlik bilan bayon qilingan boʻlib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir.

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun dunyoga tanitgan qomusiy shoh asardir. U nafaqat oʻzbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham muhim oʻrin egallab kelayotganligi hammamizga aʼyondir. “Boburnoma” tarixiy badiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining yorqin ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba boʻlishi bilan birga, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob vazifasini bajarmoqda. Unda Bobur yashab ijod qilgan davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti badiiy shaklda oʻzining yorqin ifodasini topganligi bilan bir qatorda asardagi voqealar qiziqarli, ravon va sodda tilda bayon etilgan. “Boburnoma” muallif xotiralari va esdaliklaridan tashkil topganligi bilan

ham ahamiyatlidir. Shu sababdan uning asl nomini muallifning o'zi "Vaqoyenoma", ya'ni "Voqealar kundaligi" deb atagani bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburning o'zidir.

Bu asar boshqa manbalarda "Voqeoti Boburiy", "Tuzuki Boburiy", "Tavorixi Boburiy" va "Boburiya" kabi nomlari bilan ham shuhrat qozongan. Keyinchalik esa uni "Boburnoma" deb atash odatga aylanib bordi.

"Boburnoma"ning yaratilish tarixi haqida olimlar turli fikrlarni bildirishgan.

Ushbu kitobni birinchi marta o'qiyotgan kitobxon ham kelajakdagi voqea va hodisalarning oldindan bayon etilganligining guvohi bo'lishi ham bejiz emas. Bu esa, asar Bobur hayotining so'nggi yillarida yozilganligidan dalolat beradi.

Olimlarning aksariyat qismi "Boburnoma" yozuvchi hayotining oxirgi yillarida, aniqrog'i, 1525-1530-yillarda yozilgan, degan fikrni qo'llab quvvatlaydilar.³³ Asarda 1494-1530-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindistonda ro'y bergan tarixiy voqealar Bobur hayoti bilan chanbarchars bog'langan holda bayon etilgan. "Boburnoma" o'n ikki yashar Boburning otasi Umarshayxning vafotidan so'ng Farg'ona viloyatiga podsho bo'lganidan boshlanib, to umrining oxirigacha bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni qamrab olgan.

Afsuski, bu asar qo'lyozmalarining bizgacha yetib kelgan nusxalarida Bobur xotiralarining 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530-yillar voqealari yo'qolgan. Lekin, shunga qaramay, Bobur kundaliklari o'zining tuzlishi va g'oyaviy yo'nalishi nuqtai nazaridan bir butun asarligini saqlab qolgan.

"Boburnoma" o'zida bayon etilgan voqealar jarayoniga ko'ra uch qismga: Boburning Movarounnahr (1494-1504), Afg'oniston (1504-1524) va Hindiston (1524-1530) dagi hukmronlik davrlariga bo'linadi.

Birinchi qismida Boburning otasi – temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461-1494) xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga

³³ Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. -Т.: О'zbekiston, Б. 47.

o'tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan hokimiyat uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi (XV asrning 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniylarga qarshi olib brogan jangu jadallari (1497-1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxminan 250 askari bilan Afg'onistonga borishi haqidagi voqealar batafsil yoritilgan.

Birinchi qismida Boburning Movarounnahrda podsholigi bilan bog'liq voqealar, ona zamin tabiati va uning ne'matlari, otasi Umarshayxning nasl-nasabi, oilaviy hayoti, yurish-turishlari, saroydagi mansabdor tarixiy shaxslar va ularning o'rni hamda faoliyati, xususan, ilm-fan, san'at va adabiyot namoyandalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Aynan shu davrda Bobur bobosi Amir Temur davlatining poytaxti bo'lmish Samarqandni o'z davlatining markaziga aylantirishga harakat qilgan. Lekin, uning maqsad va harakatlari turli sabablarga ko'ra amalga oshmagan va nihoyat Bobur boshqa mamlakatga chiqib ketishga majbur bo'lgan.

“Boburnoma”ning Movarounnahr davri tavsifida turli toifadagi, tabaqadagi kishilarning hayoti, shahar va qishloqlarning manzarasi, nabotot va hayvonot olami, ob-havosi, aholisi va ularning etnogenezi, tili va urf-odatlarini hayotiy va sodda qilib tasvirlanadiki, natijada kitobxon Boburning naqadar yuksak bilimiga guvoh bo'ladi. Muhimi, Bobur haqiqatni gapirganida hech kimni ayamaydi. Har qanday voqea yuz bermasin, har qancha ulug' martabali yoki mansabdor shaxs haqida gap bormasin, u voqea-hodisalarga, kishilarning yurish turishlariga, ularning insoniy hislatlariga haqqoniy baho beradi. “Boburnoma”da muallif Farg'ona, Andijon, Toshkent, Samarqand viloyatlaridagi shaharlarning tarixi, ular atrofidagi tabiatning go'zal manzaralari, oqar suvi va chashmalari hamda ona zaminni shunchalik omilkorlik va joziba bilan tasvirlaganki, bular Bobur ijodining yuksakligi va ona yurtga bo'lgan kuchli muhabbatining bir mujdasidir.

“Boburnoma”ning ikkinchi qismida Qobul va uning atrofidagi jarayonlar haqida gap boradi. Asarda Bobur qanday qilib Qobul va uning atrofidagi yerlarni

bosib olgani, afgʻon qabilalarini boʻysundirib, yangi davlat barpo etganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar beriladi.

Shu davr oraligʻida Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishgʻol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Qobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik koʻra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Bobur Qobul viloyati aholisi haqida “Boburnoma”da shunday maʼlumot keltirgan: “Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va aʼrobdur. Shahrida va baʼzi kentlarida sortlardur. Yana baʼzi kentlarida va viloyotida pashoyi va paroji va tojik, baraki va afgʻondur. Gʻarbiy togʻlarida hazora va nakdariylar. Bularning orasida baʼzi moʻgʻuliy til bila Kobul viloyatida hikoyat qilurlar... Oʻn bir – oʻn iki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar... Muncha muxtalif aqvom va mugʻayyir alfoz maʼlum emaskim, hech viloyatgʻa boʻlgʻay”.³⁴

Asarning uchinchi qismi esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Loʻdiyni magʻlub etigani, Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi maʼlumotlardan tashkil topgan.

Bobur hayotining Hindiston davri turli ajoyib va gʻaroyib voqealarga toʻlib toshgan. Muallifning oʻzi bu haqda shunday yozgan: “ Gʻarib mamlakate voqe boʻlubtur. Bizning viloyatlargʻa boqa oʻzga olamedur. Togʻ va daryosi va jangal va sahrosi, mavoze va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomgʻiri va eli barcha oʻzgacha voqi boʻlubdur”.³⁵

“Boburnoma”da keltirilgan barcha maʼlumotlar, xususan Fargʻona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chagʻoniyon va Shimoliy Afgʻonistonning XV asrning 80-90-yillari va XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar oʻzining batafsilligi bilan shunga oʻxshash boshqa adabiyotlardan keskin farq qiladi. Asarda, ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din taʼlimoti,

³⁴ Бобурнома. Б. 189.

³⁵ Ўша жойда. Б. 272.

tilshunoslik, jug`rofiya, tabiatshunoslik, ma`danhunoslik, dehqonchilik, bog`dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o`z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo`qotmagan ma`lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan.

Asarda o`sha davrdagi qo`shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog` turlari, qo`rg`onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko`plab harbiy-ma`muriy islohotlar ( tuman,ulus, ko`kaltosh, eshikog`a, axtachi, tarxon, shig`ovul, sharbatdor, mubashshir, tug`chi, miroxo`r, rikobdor, dorug`a, murchil, manjaniq, o`ron va boshqalar) ham uchraydi. Shu bilan bir qatorda, “Boburnoma”da temuriylar qo`shinining tuzilishi, harbiy san`ati va boshqalar haqida ma`lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg`oniston, Xuroson va Hindiston o`tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili va madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an`anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek, o`sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma`lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, Farg`ona, Andijon, Samarqand, Qobul, Hirot va Agra kabi yirik shahar va viloyatlarning jug`rofiy-ma`muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, daryo va suv havzalari, cho`l-adirlari, tog`-sahrolari, bog`u rog`lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o`simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma`lumotlar beriladi.

Ma`lumotlarning ko`pligi, aniq va to`laligi, tarixiy voqealarning rostgo`ylik bilan ifoda etilishi, xronologik izchillik, ifodaning sodda va ravonligi “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko`pgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi.

“Boburnoma”ni g`arb tillariga tarjima qilgan J.Leyden, U.Erskin, Pave de Kurteyl, Uayt King va boshqalar bu mumtoz kitobga asosan tarix asari sifatida yondashib, o`z tarjimalariga yozgan so`zboshi va izohlarida uni XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo, Afg`oniston va Hindistonda yuz began ijtimoiy-siyosiy voqealarni aniq tasvirlovchi tarixiy hujjat, ana shu hududlarning jug`rofiyasi, o`simlik va hayvonot dunyosi, etnografiyasi haqida ishonchli ma`lumot beruvchi manba deb e`tirof etganlar.

Shuningdek, Leyn-Pul, Eduard Holden, Elfinston, Herman Vamberi, N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold³⁶ va boshqa tarixchilar ham asarning umumiy mazmuni haqida fikr yuritish bilan birga, muallifning hayoti va shaxsiyati haqida o'z qarash va mulohazalarini bildirganlar.

Masalan, ingliz tarixchisi Leyn-Pul shunday yozadi: “ Uning memuarlari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas; bu xotiralarda Sharq adabiyotlarini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o'rganadigan, ular haqida xolis va odil fikr yurita oladigan mutaassir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taasurotlari va nozik fikrlari berilgan.

Uning o'z qiyofasini chizishdagi samimiyligi, fazilat va nuqsonlarini ham mardona tasvirlashi, ochiq ko'ngilligi, haqqoniyligi va ajoyib hazilkashlik tuyg'ulari bu go'zal xotiralarning e'tibori va ahamiyatini yanada oshiradi”.³⁷

“Boburnoma” undagi tarixiy shaxslarning ko'pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiyoti va tanazzuli yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiy hujjat, urushlar tarixi, jang qurol-yarog'lari, jangga saf tortish va jang taktikalari, davlatlararo va shohlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manba vazifasini bajaradi.

“Boburnoma”da ellikka yaqin yaqin shoirning ismi sharifi aytilib, ularning asarlari tahlil etilgan yoki baho berilgan. Ko'plab shoirlar nomlari aytilmay, asarlaridan ba'zi parchalar biror voqea munosabati bilan keltirilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, Sharqda ahloq otasi sifatida shuhrat qozongan Sa'diy Sheroziy va uning “Guliston” asari alohida qayd etilgan. Bobur bu asardan ba'zida eslatib, ba'zida eslatmay bir qator iqtiboslar keltiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XV asrda o'z ijodi bilan fors-tojik adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, Xuroson va uning poytaxti Hirotidagi adabiy-madaniy hayotning rivojida katta mavqega ega bo'lgan Abdurahmon Jomiyga yuksak baho bergan.

³⁶ Бобур энциклопедияси. Б. 158.

³⁷ Ўша жойда. Б. 159.

“Boburnoma”da muallif ijodkorlar haqida gapirganda, taʼriflaganda ularning adabiyot va sanʼatni rivojlantirishga qoʻshgan hissasini, bu sohadagi mahoratini, madaniy taraqqiyot yoʻlidagi xizmatlarini yoritishga harakat qiladi va shoir yoki adibga ana shu nuqtadan turib baho beradi. Muallif oʻzi tavsiflayotgan qalam ahli haqida gap ketganda, ularning ijodiga xos boʻlgan muhim tomonlarini ochishga intiladi.

Bobur bu davrda yashagan mashhur musavvirlar ijodiga taʼrif berganda ham ularning sanʼatdagi asosiy sifatlarini aks ettirishga harakat qilgan. Muallif Kamoliddin Behzodning musavvirlik mahoratidagi noziklikni, soqollik kishilarni tasvirlashdagi mahoratini yuksak baholash bilan birga, uning kamchilik tomonini ham koʻrsatib oʻtadi. Bu bilan buyuk musavvir ijodiga xolisona baho beradi.

Boburiylar hukmronligi davrida bu asar fors tiliga toʻrt marta tarjima qilingan. Dastlab, Humoyun davrida bu asar Zaynixon tomonidan, keyin esa Poyonda Hasan tomonidan, uchinchi marta Akbar hukmronligi davrida Abdurahim Xonixonon tomonidan va nihoyat toʻrtinchi marta Shohjahonning buyrugʻiga binoan Abu Tolib Tubatdiy tomonidan forschaga tarjima qilingan.³⁸

“Boburnoma”ning jahonga mashhur boʻlishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta ahamiyatga ega boʻldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi toʻliq nashrini ingliz tilida 1826-yilda J.Leyden va U.Erskin amalga oshirgan.

Yuqoridagi maʼlumotlarga qoʻshimcha qilgan holda, “Boburnoma”ning nashrlari haqida ham maʼlumot berishni joiz deb bildik. Ushbu asar birinchi marta rus turkologi N.I.Ilminskiy tomonidan Qozonda nashr etilgan (Qozon universiteti bosmaxonasi, 1857-yil). U XVII asrda koʻchirilgan va fanda keyinchalik “Boburnoma”ning Qozon nusxasi deb atalib kelgan, aslida Buxoroda topilgan qoʻlyozma asosida amalga oshirilgan. N.I.Ilminskiy kitobga qisqacha soʻzboshi yozgan va unda nashr prinsiplarini bayon qilib, koʻrsatkichlar va izohlar bilan taʼminlagan.

³⁸ Ўша жойда. Б. 166.

1905-yili ingliz sharqshunosi A.S.Beverij “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan qoʻlyozmasining faksimilesini Londonda sinkografiya usulida chop ettirgan. Nashrga soʻzboshi, kishi ismlari, urugʻ-qabila nomlari koʻrsatkichlari ilova qilingan.

Ilminskiy va Beverij nashrlari “Boburnoma”ning oʻrganilishi, tadqiq va targʻib etilishida muhim rol oʻynashi bilan bir qatorda asarning keying nashrlari uchun asos boʻlib xizmat qilgan desak xato boʻlaydi. Jumladan, 1948-1949-yillarda Oʻzbekistonda “Boburnoma”ning toʻliq matni kirill alifbosiga asoslangan oʻzbek yozuvida nashr etilgan (Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”, 1-2-qism. T., Oʻzdavrnashr; nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Mirzayev.)³⁹ Nashrga kishi ismlari, geografik joy nomlari koʻrsatkichlari, lugʻat, izoh va forsha jumlar tarjimalari ilova qilingan.

“Boburnoma”ning Oʻzbekistondagi ilmiy yondashuviga asoslangan nashri 1960-yili amalga oshirilgan (Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. T., OʻzFA nashriyoti). Nashrni tayyorlagan P.Shamsiyev Qozon va London bosmalariga asoslanib, ularning birini ikkinchisi yordamida toʻldirishga intilgan va shu yoʻl bilan matndagi bir qator kamchiliklarga barham berishga muvaffaq boʻlgan (har ikki nusxa oʻrtasidagi farqlar sahifa ostida koʻrsatib borilgan). Bu nashr bir oz qisqartirishlar bilan 1965 va 1989-yillari takrorlangan (“Boburnoma”. T., “Юлдузча”).

“Boburnoma” 1943-1946-yillarda ikki jildda usmonli turk tilida ham izohlar bilan nashr etilgan. Rashit Rahmati Arat qalamiga mansub tarjima Haydarobod nusxasi asosida tayyorlangan va katta hajmdagi izoh va koʻrsatkichlar bilan nashr etilgan.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, “Boburnoma” 1980-yili Parijda YUNESKO ning maxsus qarori bilan fransuz tiliga tarjima qilinib, chop etilgan.YUNESKO nashri uch qismdan iborat boʻlib, “Bobur Movarounnahrda”, “Bobur Afgʻonistonda” va “Bobur Hindistonda” deb nomlanadi. Har bir qismga

³⁹ Ўша жойда. Б. 168.

mazkur davlatlarning mashhur boburshunos olimlari uchta alohida soʻz boshi yozganlar.⁴⁰

“Boburnoma”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va chop etish yapon olimi E.Mano tomonidan amalga oshirilgan. Nashr mukammal ilmiy apparat bilan taʼminlangan hamda unga ikki jild qoʻshimcha qilingan. 1-jild (tanqidiy matn): Zahiriddin Muhammad Bobur . “Boburnoma” (Vaqoyi). Kioto, Shikado, 1995 yil. 2-jild: Korkondans va tasniflangan koʻrsatkichlar. Kioto, Shikado, 1996-yil. 3-jild (yapon tiliga izohli tarjima): Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” (Vaqoyi). Kioto, Shikado, 1998-yil. (E.Mano majmuasining 4-jildi “Bobur va uning davri” monografiyasidan iborat.)⁴¹

Oʻzbekistonda 2002-yil S.Hasanov tomonidan “Boburnoma”ning P.Shamsiyev, S.Mirzayev va Eyji Mano nashrlari asosida tayyorlangan variant chop etilgan. Nashrga kishi nomlari, joy, qavm-qabila, hayvon va osimliklar nomlari, masal va hikmatli soʻzlar, kitob va risolalar nomlari hamda sheʼrlar roʻyxati ilova qilingan, “Boburnoma”dagi uzilishlar, Boburning oʻgʻli Komronga yozgan maktublari va vasiyatnomasining tarjimalari qoʻshilgan (Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. T., “Sharq”, 2002).

2007-yil Sh.Yorqin “Boburnoma”ning “Qobul” qismini chop ettirgan (Zahiriddin Muhammad Boburshoh.Voqeoti Qobul). 2008-yili esa asarning toʻliq nashri Eyjo Manoning tanqidiy matni asosida amalga oshirilgan (Zahiriddin Muhammad Boburshoh. Boburnoma. Mozori Sharif, Farhange Bunyodiy, 2008-yil).

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib shuni taʼkidlab oʻtish joizki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari butun insoniyat tarixida muhim oʻrin tutib kelayotgan asardir. Oʻtmishdagi baʼzi memuar asarlarga eʼtibor bilan qarasak, unda oʻsha davrdagi hukmdorni yoki oʻsha davr qahramoni koʻklarga koʻtarilib tasvirlanadi. Bundan tashqari, asar kim tomonidan yozilgan boʻlsa, muallif oʻziga yaqin odamlarning kamchilik va xatolarini imkon boricha yashirib yozadi.

⁴⁰ Hasanov S. Захириддин Мухаммад Бобур. Б. 23.

⁴¹ Бобур энциклопедияси. Б. 169.

“Boburnoma”da esa bunday ishlar deyarli ko`zga tashlanmaydi. Bu ham o`z o`rnida bu asarning boshqa memuar asarlardan ustunligini ko`rsatib beradi. Chunki, bu asarda muallif o`ziga xoh do`st, xoh dushman bo`lsin ularga haqqoniy ta`rif berib o`tgan.

Shu o`rinda bu asarning yana bir saviyasini ko`rsatib beradigan narsa shuki, bu asarda o`z ko`zi bilan ko`rgan hayotning barcha jabhalarini o`ziga qamrab oluvchi ma`lumotlar keltirilgan. Boshqa hech bir memuar asarda bu darajada ma`lumotlar ko`p uchramaydi.

Eng asosiysi, bu asar orqali biz hali mustaqillikka erishishimizdan oldin dunyoning rivojlangan davlatlari bizning o`lka tarixiga qiziqqa boshlashi natijasida bizning xalqimiz haqida ma`lumotlarga ega bo`la boshladilar. Bu bizning mustaqillikka ma`naviy erishishimiz uchun dastlaki qadamlardan biri bo`lib xizmat qildi desak mubolag`a qilmagan bo`lar edik.

II.bob. “Boburnoma”da Farg`ona tarixining yoritilishi

2.1. “Boburnoma”da Farg`ona vodiysining jug`rofiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Bobur tavsifidagi Farg`ona vodiysini haqida ma`lumot berishdan oldin, uning tabiati, iqlim sharoiti va daryo-soylariga doir qisqacha ma`lumot bermoqchimiz.

Farg`ona vodiysi O`rta Osiyo hududidagi bir qator o`lkalar ichida o`zining tabiiy sharoitlari jihatidan afzallik tomonlari bilan ajralib turadi. Ushbu vodiyning Tyanshan va Pomir tog`lari tizmalari orasidagi bodomsimon shaklli tabiiy cho`kmadan iborat. Shimoldan Chotqol, Qurama, Mo`g`ultov tizmalari bilan, sharqdan Farg`ona tog` tizmasi, janubdan esa Oloy va Turkiston tog`lari bilan o`ralib turadi. Faqat g`arb tomondan eni 8-10 kilometrli “Xo`jand darvozasi” deb ataluvchi yo`lak orqali keng Mirzacho`l dashtlariga chiqadi.

Vodiy maydoni 22 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Farg`ona vodiysining g`arbdan sharqqa uzunligi 370-380 kilometr, shimoldan janubgacha eni 80-120 kilometr gacha. Bu keng vodiyning yer yuzasi g`arbdan sharqqa tomon ko`tarilib boradi.

Vodiyning iqlimi quruq, yozi issiq va uzoq davom etadi, qishi esa sovuq. Bu yerda qadimdan issiqsevar o`simliklar – paxta, uzum, anor va ayrim noyob meva daraxtlari o`sadi. Afsuski, vodiya, xususan, uning janubiy-sharqiy tomonlari – Andijon, Quva atroflaridagi qadimiy qovun navlari keskin kamayib, hatto yo`q bo`lib ketgan.

Vodiyda azaldan sug`orma dehqonchilik uchun ahamiyatli bo`lgan yigirmatacha katta-kichik daryo va soylar joylashgan. Ularning eng yirigi Norin va Qoradaryo bo`lib, ikkovi qo`shilgach, Sirdaryoni tashkil etadi. Qolgan barcha tog` soylari asosan shimol va janubdagi tog` yonbag`irlaridan vodiyning markazi tomon oqib tushadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining “Boburnoma” asarida otasidan meros qolgan Farg`ona mulki tabiatini, dov-daraxti va mevalarini, suvlari va shaharlarini

mehr-muhabbat va faxr bilan ta'riflaydi. Bobur o'qimishli, ilmi shaxs bo'lganligidan o'zi ko'rgan har bir yurtning qaysi iqlimga mansubligini ham aytadi. O'rta asrlarda yashagan sharq olimlari tasavvurida dunyo gorizontall kengliklar bo'yicha yetti iqlimga bo'lingan. Farg'ona vodiysi Osiyo kengligida bo'lgani uchun beshinchi iqlimdanligi haqida ma'lumot beradi.

“Boburnoma”ning o'zida Farg'ona vodiysi haqida shunday deyilgan: “Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe bulubtur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, qutublarda Tarozkent bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin kish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar, Xo'jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag'a mashhurur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroyq bu daryo tamom qumg'a singar, hech daryog'a qotilmas.”⁴²

Yuqorida Farg'ona vodiysi ta'riflanayotganda e'tibor bergan bo'lsangiz, “...mo'g'ul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur.” deb aytib o'tildi. Bundan biz shuni tushunishimiz mumkinki, Farg'ona vodiysiga Sharqdan bosqinchilar hujumi natijasida hammajoy buzilganligidan dalolat beradi. Bu esa, o'z o'rnida shu voqealardan keyin aynan temuriylar davrida bu buzilgan makonlar qayta tiklanganidan bir mujdadir.

“Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Janubiy tarafidagi kasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas.

⁴² Бобурнома. Б. 5.

Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo`lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo`rg`onidin so`ngra mundin ulug`roq qo`rg`on yo`qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bulubtur. To`qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal`aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal`aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qal`ag`a fosila ushbu xandak yoqasidogi shohruhtur. Ovi qushi dog`i ko`p bo`lur, qirg`ovuli behad semiz bo`lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg`ovulni uskunasi to`rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahar va bozorisida turki bilmas kishi yo`qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash`u namo topibtur, bu til biladur.

Elining orasida husn xeyli bordur. ...Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko`p bo`lur”.

Yuqoridagi ta`rifda o`sha davrda Farg`ona vodiysida yettita shahar borligi, undan beshtasi Sayhun daryosining janubiy qirg`og`ida, ikkitasi shimoliy qirg`og`idaligi yaqqol bilinib turibdi.

Andijon haqida gap ketganda, muallif Andijonni bosh shahar sifatida ta`riflagan. Mevalari ichida Andijon nashvati nokiga alohida e`tibor beradi. Asarda shaharda to`qqizta ariq borligi haqida ma`lumot bor. Bundan ma`lumki, XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida shaharda va yaqin atrofda anchagina ekin yerlar, bog`-rog`lar serob bo`lgan. Undan tashqari, bu ariqlar shahar mahallalari, hovlilari orqali oqib o`tib mayda ariqchalar, hovuzlarni ham suv bilan ta`minlagan va kundalik uchun sarflangan.

XV asrda Andijon shahrini suv bilan ta`minlagan Oqbo`ra soyidan chiqarilgan to`qqiz ariqning biri bo`lgan. Andijonning to`qqizta arig`i haqida Sayfiddin Jalilov maxsus maqola yozgan, unda to`qqizta ariqdan birgina Hakan ariq nomi “Boburnoma”da tilga olingani, qolganlarining nomi keltirilmagani qayd etilgan. S.Jalilov ariqlarning joylashish o`rnini ham aniqlagan. Bozor arig`i Andijon shahri arki devorining janub tomonidan kelib, Sharifboy, Sholdirama

guzarlari orqali o'tib, g'arbda Dalvarzin arig'iga qo'shilgan. Bu ariq nomini S.Jalilov Juyibozor, Uzumbozor arig'i deb yozadi, ariq nomlari qaysi manbalarga asoslanib keltirilganini qayt etmagan.

Bobur Andijonning o'simligi va hayvonot dunyosi haqida ma'lumot berganida mantiqan shu narsa a'yon bo'ladiki, daryo qirg'oqlari to'qayzor, qamishzorlardan iborat bo'lib, bu yerlarda yovvoyi o'rdakdan tortib ov qilinadigan turli qushlar serob bo'lgan.

Xalqini turkiylar deb ta'riflagan. Shu bilan birgalikda, bu til bilan Alisher Navoiy Hirotda obro'-e'tibor qozonganini ta'kidlashimiz mumkin. Demak, o'sha davrda ham bu hudud o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi muhim makon bo'lgan.

“Yana bir O'sh qasabasidir. Andijonning sharqi janubiy tarafidur, sharqqa moyil, Andijondin to'rt yig'och yo'ldur. Havosi xo'b va oqar suyi farovondur. Bahori bisyor yaxshi bo'lur. O'shning fazilatida xeyli ahodis favorid bo'lubtur. Qo'rg'onning sharqi janubiy bir mavzun tog' tushubtur, Baroko'hg'a mavsum. Bu tog'ning qullasida Sulton Mahmudxon bir hujra solubtur, ul hujradin quyiroq ushbu tog'ning tumshug'ida tarix to'qquz yuz ikkida men bir ayvonlik hujra soldim. Agarchi ul hujra mundin murta'fedur., vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqe bo'lubtur: tamom shahr va mahallot oyog' ostidadur. Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub, Andijong'a borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudqa mushriftur, binafshasi bisyor latif bo'lur. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lur, qalin lola va gullar ochilur. Baroko'h tog'i domanasida shahr bila tog'ning orasida bir masjid tushubtur, masjidi Javzo otliq, Tog' tarafidin bir ulug' shahjo'y oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, sebarlik, pursoya, safolik maydon voqe bo'lubtur.

Har musofir va rahguzar kelsa, anda istirohat qilur. O'sh avboshining zarofati budurkim, har kim unda uyqulasa, ul shahjo'ydin suv quyarlur. Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil va oq mavjliq tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi:

pichoq dastasi va takband va ba`zi nimalar qilurlar, xeyli yaxshi toshdur. Farg`ona viloyatida safo va havoda O`sh chog`liq qasaba yo`qtur.”⁴³

Boburning O`shga berilgan ushbu ta`rifida uning tabiiy sharoiti, iqlimi, ko`kat-o`simliklari-yu, oqar suvlariga qisqa va lo`nda, ammo hozirgi zamon jo`g`rofiy jihatdan ham to`g`ri baho beradi. Albatta, davrlar o`tishi bilan hamma joyda bo`lgani kabi O`shning tabiiy landshafti ham o`zgarib ketganligi aniq. Biroq, uning tabiati va iqlimiga berilgan baho tog`ri va abadiydir. O`sha davrda Baroko`h deb atalgan hozirgi Sulaymon tog`i<sup>44</sup> haqida xabar berar ekan, tog`da oq va qizil tovlanadigan tosh borligi, undan pichoq dastasi, kamar va boshqa turli buyumlarga qadaydigan bezaklar yasalishi haqida ma`lumot beradi. “Boburnoma”da hatto o`shliklarning qadimgi urf-odatlari ham keltirilgan. Jumladan, tog` tagida Javzo masjidi sahni ko`kalamzor va nihoyatda salqin bo`lib, musofirlar shu yerda yotib dam oladilar. Kimki bu yerda uxlab qolsa, yonida oqayotgan ariqdan uning ustiga suv quyib yuboradigan hazil odat saqlangan. Farg`ona vodiysida havosi O`shdek bironta shahar yo`qligini ham biz shu asar orqali bilib olamiz.

“Yana bir Marg`inondur, Andijonning g`arbidadur, Andijondin yetti yig`och yo`ldur. Yaxshi qasaba voqe bo`lubtur, pur ne`mat; anori va o`rugi asru ko`p xo`b bo`lur. Bir jins anor bo`lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig`idin andak choshni bor. Samnon anorlarig`a tarjeh qilsa bo`lur. Yana bir jins o`ruk bo`lurkim, donasi olib, ichiga mag`z solib quruturlar, “subhoniyy” derlar, bisyor lazizdur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo`lur. Eli sorttur va mushtzan va po`rsharu sho`r eldur. Jangarilik rasmi Movarounnahrda shoe`dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg`inoniydur. Sohibi “Hidoya” Marg`inonning Rushdon otliq kentidindur.”

Marg`ilon ta`rifida esa, biz bu shaharning turli ne`matlarga boy, yaxshi shaharligini bilib olamiz. Hayvonot olamidagi yovvoyi qushlari va oq kiyigi haqidagi ma`lumot faqat ushbu asarda beriladi. Hatto marg`ilonliklar orasida

⁴³ Бобурнома. Б. 6.

⁴⁴ Жалилов С. Бобирнинг Фарғона давлати. -Т.: Фан, 1995. Б. 20.

polvonlarning ko`pligi ham muallifning nazaridan chetda qolmagani ham tahsinga sazovordir. Xalqi haiqda ma`lumot berar ekan, bu yerning tub joy aholisi sortlar deb aytilgan. Bu masalaga alohida e`tibor bilan qarash joizdir. Chunki, “sort” so`zi har doim ham bir xil ma`noni bildirib kelmagan. Bu atama vaqtlar o`tishi bilan ma`nosini ma`lum darajada o`zgartirib borgan.

Shu ma`lumotlar bir qatorda Bobur o`z asarida “Hidoya” asari muallifi haqida ham ma`lumot berib ketgan. Bu uning o`sha davrdan oldin ham bu yerda ijod qilgan tarixiy shaxslar haqida ma`lumotga egaligidan dalolat beradi. Nafaqat, bu shaxs haqida, balki bu shaxsning tug`ilgan makonini ham keltirib o`tadi.

“Yana bir Isfaradur, ko`hpoyada voqe bo`lubtur. Oqar suvlari, safoliq bog`chalari bor. Marg`inonning g`arbi janubidadur. Marg`inon bila Isfara orasi to`qquz yig`och yo`ldur. Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog`chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va ko`hiydur. Isfaraning bir sha`risida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, “Sangi oyina” derlar, uzunligi taxminan o`n qari bo`lg`ay, baladlig`i ba`zi yeri kishi bo`yi, pastlig`i, ba`zi yeri kishining belicha bo`lg`ay, oyinadek har nima mun`aks bo`lur.

Isfara viloyati to`rt buluq ko`hpoyadur: bir Isfara, yana bir Vorux, yana bir So`x, yana bir Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong`a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg`on mahalda, ushbu So`x bila Hushyor ko`hpoyalarig`a kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o`tkarib, Kobul azimati qildim.”⁴⁵

Bobur Isfara haqida yozar ekan, uni tog` yonbag`rida joylashgani, oqar suvlariga, qator xushmanzara bog`lariga, daraxtlari ko`pligiga alohida yondashgan. Hatto bog`larida, ayniqsa bodom mevasi ko`p ekanligiga ham e`tibor beradi. Bobur Qobulga ketishi oldidan Isfara tog`lari atroflarini yaxshi o`rgangani sababli shahardan taxminan ikki kilometr janub tomonda, tepaliklar orasida “Sangi oyina” nomida yuritiladigan bir tosh borligi haqida ma`lumot beradi. Uning uzunligi yetti

⁴⁵ Бобурнома. Б. 7.

metrgacha, balandligi o`rtacha odam bo`yiga teng⁴⁶. Bobur ta`rificha ma`lum bo`lganidek, hamma narsani oynadek o`zida aks ettiradi.

“Yana bir Xo`janddur, Andijondin g`arb sorig`a yigirma besh yig`och yo`ldur. Xo`janddin Samarqand ham yigirma besh yig`och yo`ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin va Xoja Kamol Xo`jandtindurlar.

Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo`lur. Anori yaxshiliqqa mashhurdur. Nechukkim, “sebi Samarqand” derlar va “anori Xo`jand” derlar. Vale bu tarixda Marg`inon anori ko`p ortuqdur.

Qo`rg`oni baland yerda voqe bo`lubtur. Sayxun suyi shimol jonibidin oqar. Qo`rg`ondin daryo bir o`q otimi bo`lg`ay. Qo`rg`on bila daryoning shimol tarafida bir tog` tushubtur. Mung`il otliq, derlarkim, bu tog`da firuza koni va ba`zi konlar topilur. Bu tog`da bisyor yilon bor.

Xo`jandning ovlog`i va qushlog`i bisyor yaxshidur. Oq kiyik, bug`u-maral, qurg`ovul va tovushqoni ko`p bo`lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko`p bo`lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chupchuq bezgak bo`lg`ondur. Derlarkim, havosining taffuni shimoldag`i tog` jihatidindur.”⁴⁷

Muallifning Xo`jandga bergan birinchi ta`rifidan shuni tushunishmiz mumkinki, bu shahar e`tibor bilan qaralganda o`sha davrda Boburbi sargardon qilgan ikki shahar: Andijon va Samarqandning o`rtasida joylashgan. Chunki, Xojandni har ikki shaharga bir xil masofa ajratib turadi.

Xo`jand mevalariga ham yaxshi ta`rif berilgan. Ayniqsa, anori maqtovlidir. Muallif o`sha davrda Xo`jandning anor mevasi bilan mashhurligini ham aytib o`tgan. Aynan shu joyda Boburnig haqiqatgo`yiligini ham bilishimi mumkinki, garchi “Xo`jand anori” deb nom qozonsada, bu davrda Marg`ilon anori mashhurligini ochiqchasiga aytib o`tgan. Qorg`oni baland joyda joylashganidan va shimol tarafidan tog` o`rab turishidan shuni bilishimiz mumkinki, bu shahar mudofaasi ham kuchliligidan bir dalolatdir.

⁴⁶ Жалилов. С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б. 21.

⁴⁷ Бобурнома. Б. 7.

Bobur Xo`jandda Andijondagi kabi bezgak kasalligini kuzda ko`p bo`lishi haqida ham ma`lumot bergan. Bu uning makonlardagi salbiy jihatlarni ayta olishi bilan ham xarakterlanadi.

Eng asosiysi, Bobur bu yerning havosi shimoldagi tog`ning hisobiga tozaligini aytib o`tadi. Bu uning naqadar har bir narsaga ziyraklik bilan e`tibor berishining bir belgisidir.

“Muning tavobidin Kandibodomdur. Agarchi qasaba emas, yaxshig`ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo`lur. Bu jihatdin bu ismg`a mavsumdur. Hurmuz va Hindistong`a tamom muning bodomi borur. Xo`janddin besh-olti yig`och shar tarafidadur. Xo`jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg`a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel borur. Marg`inong`akim, sharqidur, hamisha mundin el borur. Xo`jandg`akim g`arbidur, doyim mundin yel kelur: tund ellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund elga yo`luqub, bir-birini topolmay, “Ho, darvesh”, “Ho, darvesh”, dey-dey halok bo`lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar.”⁴⁸

Zahiriddin Muhamad Bobur “Boburnoma”da Konibodom ta`rifiga to`xtalar ekan, bu shahar Xo`jandga tobeligini aytib o`tadi. Shu bilan birga bu shahrning katta shahar emasligini ham eslatadi. Bu yerda bodom ko`pligidan shu nisbatni olganini bilib olishimiz qiyin emas. Bu yerdagi bodomlar hozirgi Hurmuz ko`rfazi atroflariga va Hindistonga olib borib sotilgan. Bundan shu narsa ma`lumki, o`sha davrda ham Buyuk Ipak yo`li ma`lum ma`noda faoliyat olib borilganidan darak beradi. Demak, shuni am aytsak bo`ladiki, Konibodom haqidagi ma`lumotlarni o`sha hududda yashagan xalqlar ham bilgan.

Xo`jand bilan Konibodom o`rtasida Hodarvesh deb nomlangan joy borligini va ushbu nom qayerdan paydo bo`lganini ham biz aynan shu asar orqali bilib olamiz. Bobur doim bu yerda shamol esishini va shamol qaysi tomondan esishini ham aniq yozib ketgan.

⁴⁸ Ўша жойда. Б. 7,8.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sayhunning chap qirg`og`idagi shaharlar ta`rifini tugatgach, o`ng sohilidagi shahrlar haqida ma`lumot berishni Axsidan boshlaydi.

“Sayhun suyining shimol tarafidag`i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg`onada, Andijondin so`ng mundin ulug`roq qasaba yo`qtur. Andijondin g`arb sori to`qquz yig`och yo`ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayhun daryosi qo`rg`onning ostidin oqar. Qo`rg`oni baland jar ustida voqe bo`lubtur. Xandaqining o`rniga amiyq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg`onada muncha berk qo`rg`on yo`qtur. Mahalloti qo`rg`ondin bir sha`riy yiroqroq tushubtur. “Deh kujovu darxt kujo” masalini g`olibo Axsi uchun aytibturlar. Qovuni yaxshi bo`lur. Bir nav qovundurkim, “Mir Temuriy” derlar, andoq qovun ma`lum emaskim olamda bo`lg`ay. Buxoro qovuni mashhurdur. Samarqandni olg`on mahalda Axsidin, Buxorodin qovun keltutub bir majlisda kesturdum, Axsi qovunining hech nisbati yo`q erdi.

Ovi qushi bisyor yaxshi bo`lur. Sayhun daryosining Axsi tarafi dashttur. Oq kiyigi bisyor bo`lur. Andijon tarafi jangaldur. Bug`u-maral, qirg`ovul va tovushqoni ko`p topilur, asru semiz bo`lur.”⁴⁹

Muallifning ta`rificha, Farg`ona vodiysida o`sha davrda Andijondan so`ng eng katta shahar Axsidir. Bu shaharni Boburning otasi Umarshayx Mirzo poytaxt qilib tanlagan edi. Shahar Sayhunning yoqasida, baland jarlikda joylashganligi bilinib turibdi. Boburning ta`rificha, butun Farg`onada Axsi shahrining qal`asi mudofaa jihatidan eng mustahkamdir. Uning janub tomoni daryo bilan o`raglan bo`lsa, shimol va boshqa taraflarda qal`a atrofi jarliklardan iborat. Buning ustiga Umarshayx Mirzo qo`shimcha ravishda qal`a devorlari ortidan yana handaqlar qazdirgan ekan. Haqiqatdan ham bu shahar o`z davri uchun aynan Farg`ona vodiysidagi mudofa jihatdan eng yuksak darajasidaligi bilan ustundir. Shahar

⁴⁹ Ўша жойда. Б.8.

atrofidagi qishloq mahallalari qalʼadan ikki kilometrcha naridan⁵⁰ boshlangan boʻlishi mumkin. Bu yerda oraliqda boʻsh joylar boʻlganidanmi, Bobur bu yerga nisbatan “Qishloq qayda-yu, daraxtlar qayda” degan maqolni keltirgani bejiz boʻlmasa kerak.

Bobur Axsi mevalari orasida ayniqsa qovunni, xususan, uning “Mir Temuriy” navini maqtaydi. Samarqandni egallagan paytda Buxoro va Andijondan qovun keltirgani yozadi va qaysi biri qay darajada ekanligini ham keltirib oʻtadi.

Hayvonoti ichida ayniqsa, yovvoyi qushlar koʻpligini keltirib oʻtadi. Daryo tomondagi kengliklarda oq kiyik borligini ham bilishimiz mumkin. Shu bilan birga, Andijon tomoni toʻqayzor boʻlib, bugʻu va quyon koʻpligi ham keltirib oʻtilgan.

Shu narsaga alohida eʼtibor beradigan boʻlsak, Axsi haqiqatdan ham koʻp jihatdan poytaxt vazifasini bajarish uchun qulay joyda joylashganini bilsak boʻladi. Chunki, strategik jihatdan tashqari, bu yerda hukmdorning koʻngil ochishi va ov qilishi uchun qulay joylar borligi bilan ham ahamiyatlidir.

“Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi Oʻshdin kelur, Axsi suyi Kosondir kelur. Yaxshi havoliq yerdur. Safoliq bogʻchalari bor. Vale safoliq bogʻchalari tamom soy yoqasida voqe boʻlgʻon uchun, “poʻstini pesh berra” debturlar. Safo va havoda Oʻsh bila Koson elining taassubi bor.

Fargʻona viloyatining girdo-girdi togʻlarida yaxshi yayloqlari bor. Tobilgʻu yigʻochi bu togʻlarda bor, oʻzga hech yerda boʻlmas. Tobulgʻu bir yigʻochdur, poʻsti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, tarosh qilib tirgaz qilurlar, xeyli yaxshi yigʻochdur. Tabarrukluk bila yiroq yerlarga eltarlar.

Baʼzi kitoblarda bitibturlarkim, “yabruhus-sanam” bu togʻlardadur, vale bu muddatta hech kim eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettikentning togʻlarida boʻlur, ul el “ayiq oʻti” derlar, mehrijiyoh xostiyatliq, gʻolibo mehrijiyohdur, ul el

⁵⁰ Жалилов. С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б..22.

bu ot bila ayturlar. Bu tog'larda firuza koni va temur koni bo'lur. Farg'ona viloyatining hosili bila, agar adl qilsalar, uch-to'rt ming kishi saxlasa bo'lur."⁵¹

Muallifning ma'lumotiga ko'ra, daryoning o'ng sohilidagi ikkinchi shahar Kosondir. U axsining shimolida kichkinagina shahar bo'lib, Andijon daryosi O'shdan oqib kelgani kabi Axsi daryosi Kosondan oqib kelishini aytib o'tgan.

Yuqorida yozganimizdek, Farg'ona vodiysidagi yigirmatad ortiq katta-kichik daryo va soylarning biri Kosonsoy bo'lib, u Chotqol tog'ining⁵² janubiy yonbag'irlaridan boshlanadi va etagi Sirdaryoga borib qo'shiladi. Qadimda Axsi shahrini suv bilan ushbu soy ta'minlagani sababli "Boburnoma"da u "Axsi suyi" deb yozilgan.

Muallif shular qatori bu yerda tog'larda o'sadigan tubulg'a daraxtini boshqa hech yerda uchramasligini aytib o'tadi. Haqiqatdan ham bu daraxtdan ko'p narsalarga ishlatilgani uchun ham Bobur bunga alohida e'tibor bergan bo'lishi mumkin. Vodiydagi boshqa joylarga nisbatan bu yerdagi alohida ajralib turadigan narsalaridan biri bu xalq orasida "ayiq o'ti" nomi bilan mashhur bo'lgan mehriqiyoh haqida ham aynan shu asarda ma'lumot beriladi.

Bundan tashqari, Farg'ona tog'laridagi konlar haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan, noyob firuza koni hamda temir konlari mavjudligi haqida dastlabki ma'lumot faqat "Boburnoma"da uchraydi.

Demak, Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona vodiysi haqida bergan jug'rofiy, mineralogik, nabotot bo'yicha ma'lumotlaridan shu shu narsa a'yon bo'ladiki, u ensiklopedik bilimga ega bo'lgan. Boburning ayrim hududlarga bergan tasvirida ma'lum ma'noda tartib bor. Masalan, avvalo biron joyning jug'rofiy o'rni, iqlimi, o'simliklari, oqar suvlari, hayvonoti, qazilma boyliklari, va nihoyat aholisini ta'riflaydi. Ko'rib turganimizdek, ayrim hollarda xushhavo, shifobaxsh joylar alohida tasvirlanadi, hatto chetga chiqadigan mahsulotlar ham sanab o'tiladi.

⁵¹ Бобурнома. Б.8,9.

⁵² Жалилов С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б. 22.

Zahiriddin Muhammad Boburning jug`rofiy tasvirlarida o`ziga xos ilmiy halollik seziladi. U o`z ko`zi bilan ko`rganlarini “ko`rdim” deb, aksincha, ko`rmaganlarini va boshqalardan eshitganlarini “derlar” deb izohlaydi. Shuningdek, Bobur tasvirida olimona sinchkovlik bilinib turadi. Biron antiqa voqea, narsa haqida eshitib qolsa uni ataylab borib ko`rgan va surishtirib bilganini yuqoridagi ziyrakliklaridan bilib olsak bo`ladi. Dovon yo`llarini qor bosishi haqida, o`ta sovuq kelgan kunlar, daryolarning muz bosgani haqida erinmasdan aniq ma`lumotlar beradi. Masalan, Andijon sharqidagi dovonni qor bosib minglab kishilar qor ostida qolganini yozadi. Yoki “Ul oqshom qattiq sovuq edi.

Andoqkim, ba`zining ilik yog`ini sovuq oldi. Ko`p kishining quloqlari olmadek-olmadek qabarchug`lanib edi”, -deb ta`riflaydi Axsidagi bir kechani.

Umuman, Zahiriddin Muhammad Boburni Farg`ona vodiysining ehtiros bilan tasvirlagan desak bo`ladi. U o`zi merosxo`r bo`lgan ota-onasi yurtini shunday mohirlik bilan ta`riflaydiki, uning vatanga muhabbati nechog`lik balandligi shundoq sezilib turadi. Shuning uchun ham Bobur uzoq Hindostonda ekan paytlarida ham Farg`onani, kindik qoni to`kilgan Andijonni aslo yoddan chiqarmadi.

2.2. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Farg`ona kechgan siyosiy jarayonlarning “Boburnomada aks etishi

Ma`lumki, XV asr oxirida Temuriylar saltanatining asosi zil keta boshlagan edi. Jumladan, Farg`ona mulkida ham o`zaro urushlar avj olib, o`lka iqtisodiyotiga katta zarar yetgan, mehnatkash xalq o`z halovatini yo`qotgan davr edi. Farg`ona hukmdori Umarshayx Mirzo na u qarindoshlarining hujumlarini qaytara oladi, na shimol tomondan bo`lib turgan mo`g`ullar hujumini. Uning tasodifiy o`limi esa, o`zaro qon to`kishlarni yanada avj oldirib yubordi. Bu nohush urushlarning azobini halol mehnati bilan boylik yaratuvchi mehnatkash xalq tortar edi. Bir-biriga g`anim

bo`lib yurt-boylik talashayotganlarning har bir hujumi minglab begunoh odamlarning yostig`ini quritar, go`daklar yetim, ayollar beva bo`lib qolar, sug`orish inshootlari buzilib, qanchadan-qancha yerlar ekilmay qolar, oqibatda ochlik boshlanar va yurt vayron bo`lar edi.

Go`dak, ammo ziyrak Boburning siyosiy va harbiy faoliyati ana shunday murakkab tarixiy sharoitda boshlandi.

“Tengri taoloning inoyati bilan va Hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to`qson to`qquzda Farg`ona viloyatida o`n ikki yoshta podshoh bo`ldum.”⁵³

Umatshayx Mirzo halokati haqidagi xabarni, tabiiyki, hech kim kutmagan edi. Aftidan, darhol Eson Davlatbegim maslahat kengashi o`tkazgan. Chunki, Boburning yozishicha ham “Xotunlar orasida ra`y va tadbirda mening ulug` onam Esan Davlatbegimcha kam bo`lg`ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko`proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo`lur edi.”<sup>54</sup> Demak, shoshilinch kengash o`tkazilgach, katta ona maslahati bilan Bobur qonuniy taxtni egallash uchun o`sha, xabar kelgan seshanba kuniyoq Andijon shahrining arki tomon otlanadi.

O`sha davrda vaziyat shunaqa holatga yetib borgan ediki, Boburning otasiga xizmat qilgan amir va beklar, deyarli barcha amaldorlar Umarshayx Mirzo hokimiyatiga aytarlik darajada fidoyi bo`lmagani, endigina taxtga o`tirgan yosh Boburga xolisona emas, balki yomon niyat bilan qarayotgani, nima qilib bo`lsa ham biron nimagaerishish uchun o`zaro kurash boshlangani sezilib turardi.

Aynan shu Umarshayx Mirzo beklari Zahiriddin Muhammad Boburga fitna tayyorlay boshlashadi. Buni Shirimtog`oyi bilib qolib, “Mirzo darvozasi”<sup>55</sup> oldida yosh Boburni to`xtatadi. Shu sababdan, ular arkka kirmaslikka va O`zgan tomonlarga yashirinishni maslahat beradilar.

⁵³ Ўша жойда. Б.5.

⁵⁴ Ўша жойда. Б.25.

⁵⁵ Жалилов, С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б.32.

Lekin, shahar arkida boʻlgan ulugʻlardan Xoja Mavlonoyi Qozi va Boburga nisbatan yaxshi niyatda boʻlgan ayrim beklar bundan norozi boʻladilar. Darhol Xoʻja Muhammad Darzi degan kishini Bobur ketidan joʻnatadilar va Namozgoh degan joydan qaytarib keladilar.

Shu oʻrinda biz ham bir narsani tahlil qilishimiz mumkinki, agar yosh Bobur Oʻzgan tomon ketsa, hokimiyatni gʻanim beklar egallab olishi bilan hokimiyat qoʻldan ketishi mumkin edi.

Ammo, Umarshayx Mirzoning bevaqt oʻlimi uning gʻanimlari uchun ayni muddao boʻlib xizmat qiladi. Samarqand hokimi Sulton Ahmad qoʻshinlari yurish boshlab Oʻratepani va Xoʻjandni egallagach, Umarshayx oʻlimi kunlari himoyasiz qolgan Margʻilonni ham osongina qoʻlga kiritadi, Keyin Andijon yomon yurib Quvadagi Katta Qorasuv koʻprigi yonida toʻxtaydi. Bobur Sulton Ahmaddan umid qilib, tinchlik yoʻli bilan Fargʻona mulkini unga topshirish odillik boʻlar edi, degan mazmunda xat yozadi va Xoja Mavlonoyi Qozi hamda beklardan Uzun Hasanni elchi qilib yuboradi. Biroq, Sulton Ahmad atrofidagi beklar bu taklifni qabul qilmadilar va Andijonga yurish boshladilar.

Ammo oʻn ikki yoshli Boburga omad kulib boqadi. “Boburnoma”da bu haqda bunday yozilgan: “Tengri taolokim, oʻz qudrati komilasi bila har ishimni har mahalda... rost kelturubdur, munda ham necha ishni bois qildikim, alar bu kelmakdin oʻsondilar, balki bu tavajjuh din pushaymon boʻlib, bemurod yondilar.”⁵⁶

Aslida voqea shunday kechdiki, Quva Qorasuvining koʻprigi dushmanning otliq qoʻshinlarini koʻtara olamy qulab tushadi va otlar, askarlar halok boʻladi. Bundan tashqari Boburning odamlari birlashib dushmanga qarshi harakat olib borishadi. Buni koʻrgan dushman Andijonga taxminan 8-9 kilometr qolganda ortga chekinadi. Shu vaziyatda Sulton Ahmad oʻz odamini elchi qilib joʻnatadi va vaqtinchalik sulhga kelishishadi. Bu Zahiriddin Muhammad Boburning Fargʻona taxti uchun kurashdagi birinchi gʻalabasi edi.

⁵⁶ Бобурнома. Б.18.

Farg`ona shimolida ham Boburga omad kulib boqadi. Farg`ona mulkini o`zaro taqsimlab olishga kelishgan Sulton Ahmad bilan mo`g`ul xoni Sulton Mahmud va Qoshg`ar hokimi Abu Bakr Dug`latlar o`zaro kelishib olgan edilar. Shu orada Sulton Mahmud qo`shinlari Axsigahujum boshlaydilar va beklarning sotqinligi natijasida Axxi Sulton Mahmudxonga beriladi. Ammo axsiliklar ham fidokorona jang qilib Sulton Mahmudxon qo`shinlarini chekinishga majbur qiladilar.

Ayni paytda, Abu Bakr Dug`lat ham O`zganga hujum qilgan edi. Lekin, Bobur odamlarining donolik bilan o`tkazgan tadbiri natijasida dushman qo`shinlari chekinadilar.

Shundan keyin, Bobur muhim shaharlarga yaqin odamlarini yangidan hokimlikka tayinladi. Beklardan Hasan Ya`qub Andijon hokimi va eshik og`asi qilib tayinlandi. Shuningdek, Qosim Qovchinni O`shga, Uzun Hasanni Axxiga va Ali Do`st Tog`oyini Marg`ilonga hokim qilib tayinladilar.

Ammo Farg`ona davlatining ahvoli hali nochor, hokimiyat ham mustahkam emas edi. Andijonda esa bir guruh g`alamis beklar Biburga qarshi isyon ko`tarmoqchi va Farg`ona mulkini egallamoqchi edilar. Bu yashirin ishlarda Sulton Mahmudning qo`li borligi, nopok ishlarning boshida Hasan Ya`qub turgani ma`lum bo`ldi. Ayrimlar esa, o`zining yomon niyatlariga erishish uchun Boburning ukase Jahongir Mirzoni o`z akasiga qayrimoqchi bo`ldilar. Hokimiyat uchun yovuzlik shu darajaga borib yetgan ediki, hatto Boburni zaharlamoqchi ham bo`ldilar.

Muallifning o`zi bu haqda: “O`sha kunlari shubhali taomdan parhez qila boshladim. Pichoq, qoshiq va dasturxongacha ehtiyot qilur edim”⁵⁷, - deb yozadi.

Nihoayt, mashvarat chaqirilib, Hasan Ya`qub shahar hokimligidan olib tashlandi va shu tariqa fitnaning oldi olindi.

Shu voqealardan keyin, Bobur 1497-yilning noyabrida Samarqandni egallagan edi. Lekin, shu davrda Boburning asosiy mulki hisoblangan Farg`onada

⁵⁷ Ўша жойда. Б.31.

notinchlik boshlangan edi. Axxi va O'sh hokimligiga tayinlangan Uzun Hasan va Ahmad Tanballar Jahongir Mirzoni taxtga o'tqazish uchun harakatni boshlab yuborgan edilar. Fitnachilar birlashib Andijonni qamal qiladilar. Shu vaqtda Xoja Mavlonoyi Qozi boshliq bir necha odamlar Boburga xat jo'natadilar. Xatdagi asosiy ma'no shundan iborat ediki, nima qilib bo'lsa ham Andijonni qo'ldan boy bermaslik kerakligi aytib o'tilgan. Lekin, bu vaqtda Bobur kasal bo'lib qoladi va Andijonga o'z vaqtida yetib kela olmaydi. Ali Do'st Tog'ay noilojlikdan Andijon darvozasini g'animlarga ochib beradi. Shu vaqtda Bobur ham Samarqanddan Xo'jandga yetib kelganida Andijondagi voqealar tafsiloti unga aniq ma'lum bo'ladi.

Bobur uchun qanday qilib bo'lmasin Andijonni qaytarib olish shart edi. Shu maqsadda u Xo'janddan tog'asi Sulton Mahmudxonga yordam so'rab chopar yuboradi. Sulton Mahmudxon Farg'ona tomon qo'shin tortib Toshkentdan Ohangaron orqali Kendirlik dovonidan o'tib⁵⁸ yaylovda to'xtaydi. Bobur esa Xo'janddan yurib tog'asi bilan o'sha joyda ko'rishadi va Axxi tomon yo'l oladilar.

Sulton Mahmudxon qat'iy harakat qilib, sharoit talab qilganidek, Pop qal'asini olish o'rniga sustkashlik qilib uni boy beradi va g'animlardan sovg'a-salomlar olib orqaga qaytib ketadi. Vaholanki, Boburning o'zi Axxi atrofida yolg'iz o'zi qoladi. Shu vaqtda Boburning 700-800 tacha askalari Andijonga oilasini qutqargani ketib qoladi. Natijada, Bobur 300 tacha⁵⁹ askari bilan qoladi. O'z o'rnida Bobur ham oila a'zolarini Xo'jandga chaqirtiradi va shu yerda oz fursat birga turishadi.

Ayni paytda Uzun Hasan va Ahmad Tanballar Andijonni egallaydilar. Lekin biron aniq manba yo'ligi uchun u yerdagi hayot qanday bo'lganligi haqida bir nima deya olmaymiz.

1498-yilning yoz oylarining boshlarida Bobur Toshkentga borib tog'asidan yordam oladi va darhol Andijonga yurish boshlab Konibodomdan o'tgach, Nosux degan qal'ani ishg'ol qiladi. Ammo tog'asidan yordamga kelgan mo'g'ul askarlari

⁵⁸ Жалилов. С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б.41.

⁵⁹ Ўша жойда. Б.41.

ham ishonchli emas edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, qal'ani tashlab yana Xo'jandga qaytadi.

Bobur O'ratepa yaylovlarida yurganida Ali Do'st Tog'aydan chopar keladi va unga agar Ali Do'st Tog'ayning gunohidan kechsa, Marg'ilonni unga topshirishini aytadi. Bobur bunga rozi bo'lmasdan iloji yoq edi. Chunki, vaziyat shuni taqozo etardi. Bobur dam olmay uch kunda 25 yig'och⁶⁰ (150 km) masofani bosib o'tib, Marg'ilonga yetib keladi.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, g'animlar Andijonni egallagach, aholiga ko'p ziyon yetkazgan va xalqni og'ir ahvolga solib qo'yishgan. Oqibatda xalq Boburni qaytishini xohlagan bo'lishi kerak. Ali Do'st Tog'ay esa, buni oldinroq sezib xalq oldida o'ziga nisbatan norozilikni kamaytirmoqchi bo'lgan.

Marg'ilonga kelganlaridan ikki-uch kun o'tgach o'z navkarlaridan odam to'plab Andijon janubidagi tog'larda istiqomat qiluvchi "Ashpori", "To'riqshor", "Chokrak" kabi ellardan askar to'plab kelishga jo'natadi.

G'animlar Boburning Marg'ilonda ekanligini eshitib bu hujum boshlaydilar. Lekin askarlarning fidokorona qarshiligi evaziga ular qaytib ketishadi.

Andijonning o'zida va O'shda ham Uzun Hasan va Ahmad Tanballarning tutgan siyosatidan norozi kuchlar ko'payib borayotgan edi. Bu esa Boburning qudratini ancha oshirishi tabiiy edi. Hatto, dushman ichida ham unga tarafdorlar chiqa boshlagan edi.

Shu orada Uzun Hasan va Bobur lashkarboshilari o'rtasida Sirdaryoda qayiqlarda jang bo'ladi. Bu jangda Uzun Hasan lashkarlari mag'lub etiladi. Ammo, Andijonda qolgan Nosirbek (Uzun Hasanning pochchasi) uni shahrga kirgizmaydi va Marg'ilonga chopar jo'natib Boburni taklif etadi. Natijada, Uzun Hasan Axsi tomonga, Ahmad Tanbal esa O'shga ketadilar.

Bobur Uzun Hasan yigitlarining zo'ravonlik bilan top'lagan boyliklarini o'z egalariga qaytarib olishi uchun buyruq beradi.

⁶⁰ Ўша жойда. Б.43.

Bundan shu narsani tushunishimiz mumkinki, bunda u ikki maqsadni ko`zda tutgan bo`lishi mumkin. Birinchidan, haqiqat qilib andijonliklarning talangan boyliklarini qaytarib olib berish bo`lsa, ikkinchidan esa, shu yo`l bilan o`z odamlarini zarur oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta`minlashni ham o`ylagan.

Boburning borgan sari harbiy mahorati ham oshib boradi. U Amir Temurning harbiy tartibotiga asoslanib qo`shinlarini jangovor holatga keltiradi.

Shundan keyin Bobur Ahmad Tanbalga qarshi yurish boshlaydi va Childuxtaron yonbag`ridagi Lotkand qishlog`ida to`xtaydi. Bobur O`zgandan O`shga qaytayotib Modu (Mozu) qal`asiga hujum qiladi. Bobur ushbu urushda g`alaba qozonadi va Ahmad Tanbal ukasi Xalilni yuztacha askarlari bilan asirga oladi.

So`ng Bobur qo`shinlari bilan O`njiq Tuba qishlog`iga tushadi. Tanbal qo`shinlari esa Obixon<sup>61</sup> qishlog`iga tushadi. Bobur Obixonga yurish qiladi va Tanbal hamda Jahongir Mirzo Xubon qishlog`iga chekinadi. Xubodan ikki kilometr janubi-sharqdagi Saqo qishlog`ida hal qiluvchi janfg boshlanadi. Urush Boburning g`alabasi bilan tugaydi.

Oradan yana bir qancha vaqt o`tgandan keyin Bobur bilan ittifoqchilar o`rtasida Bishxaronda sulh tuziladi. Unga ko`ra, Sirdaryoning o`ng sohili Axxi bilan ukase Jahongir Mirzoga o`tadi, daryoning chap sohili esa Andijon bilan qo`shilib Boburga qoladi.

Shu voqeadan keyin Bobur Samarqandga yurish boshlaydi. Lekin, Samarqand boy beriladi. Shu orada Bobur yo`qligidan foydalangan Tanbal sulhni buzib Andijonni egallab olgan edi. Bu degani Farg`ona ham qo`ldan ketdi degani edi.

Shundan keyin Bobur Tsohkentga tog`asidan yordam so`ragani ketadi. Shu orada Boburning kichik tog`asi Olachaxon Toshkentga keladi. Shundan keyin aka-uka xonlar maslahatlashib Boburga maxsus qo`shin ajratib berishadi. Bobur

⁶¹Ўша жойда. Б.48.

Sirdaryodan o'tib O'sh va O'zgan tomon yo'l oladi. U Qo'qon o'rchinidan⁶² o'tib Quvani egallaydi va O'shga yurish qilib g'alaba qozonadi. Buni eshitgan Sirdaryoning chap sohilidagi Andijondan boshqa shaharlar Bobur hukmronligini tan oladilar. Andijonliklar ham uni kutayotgan edilar, ammo mahalliy g'animlar bunga to'sqinlik qilishar edi.

Oradan bir qancha vaqlar o'tgach, Shayboniyxon Tanbalga xat jo'natib uni aldaydi va o'z manfaati yo'lida yordam beradi. Shu tariqa Tanbal urushlarda g'alaba qozonadi va Andijonga yangi hokim etib tayinlanadi. Biroq, Ahmad Tanbalning Andijondagi hokimiyati uzoqqa cho'zilmadi. Shayboniy yordami bilan hokim bo'lib olgan Tanbal endi o'zbek xonidan mustaqil bo'lishni kutardi.

Bundan xabar topgan Shayboniyxon Tanbalga qarshi vodiya yurish boshlaydi. Dastlabki jang shaharda ikki yig'och narida bo'ladi. Bu urushda Tanbal yengiladi va Andijon qal'asiga yashirinadi. Tanbal bu yashirinib yotishdan foyda yo'ligini tushunib Shayboniyxon chodiri tomon yurib boradi. Lekin, yo'lda askarlar tomonidan qo'lga olinib o'sha zahotiyoq osib o'ldiriladi.⁶³

Shu tariqa bu hududda ham Shayboniyxon hokimiyati o'rnatiladi.

Ana endi Boburning Farg'ona vodiysidan qanday chiqib ketgan degan savol ham tug'iladi. Bunga quyidagicha to'xtalishni joiz deb bildik.

Ma'lumiki, Bobur shu davrda Andijonda to'rt oy behalovat yashadi. Albatta, yuqorida batafsilroq fikr yuritganimizga ko'ra o'sha davr vaziyati Boburning Andijonda bundan buyon qolishini taqozo etmas edi. Zero, ana shu voqealardan so'ng biz Boburni Hisor vodiysida ko'ramiz. Bu haqda Bobur shunday yozadi: "Muharram oyida Farg'ona viloyatidin Xuroson azimati bila illoq yaylog'igakim, Hisor viloyatining yayloqlaridindur, kelib tushtum. Ushbu yurtida yigirma uch yoshining ibtidosida yuzumga ustara qo'ydim".⁶⁴

⁶² Ўша жойда. Б.70.

⁶³ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. -Т.: Ғ.Ғулом, 1989. Б.194.

⁶⁴ Бобурнома. Б.109.

Demak, diqqatga sazovor joyi shundaki, Zahiriddin Muhammad Bobur Hisor vodiysiga yetib borganida yigirma ikki yoshga to'lib, yigirma uch yoshga qadam qo'ygan, ya'ni yigirma uch yoshning ibtidosida edi.

Shu yerda yana bir savol tug'iladi. Bobur Mirzo ushbu Hisor yurtida yigirma uch yoshning ibtidosida bo'lganliklarini aniq aytmoqdalar. Ko'pgina manbalarda, Bobur Andijondan yigirma bir yoshida chiqib ketgan, deyiladi. Bu aniq va to'g'ri fikr. Xo'sh, Bobur Andijondan yigirma bir yoshida chiqib ketib, Hisorga yigirma uch yoshining debochasida yetib borgan bo'lsa, o'rtadagi bir yilda qayerda o'tkazgan? Darhaqiqat, Andijondan chiqib qayerga bordi?

Ana sha savolga javobni ham Zahiriddin Muhammad Boburning o'zlari aytganlar. U ulug' zot "Boburnoma"da shunday yozadilar: "Isfara viloyati to'rt buluq ko'hpoyadur: bir Isfara, yana bir Vorux, yana bir So'x, yana bir Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Suloton Mahmudxon bilan Olachaxonga shikast berib Toshkand va Shohruxiyano olg'on maqomda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalariga kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o'tkarib, Qobul azimati qildim".⁶⁵

Boburning yuqorida so'zlarida shunday xulosalar kelib chiqadiki, u Farg'ona mulkidan butunlay ko'ngil uzub ketolmagan. Zeroki, Andijonda chiqib So'xga, so'ng esa Hushyor qishlog'iga yo'l oldi. Demak, Hushyorda bir yil turib Farg'onada kechgan voqealarni sinchkovlik bilan kuzatgan.

Bobur So'x va Hushyorda turib ana shu voqealarni kuzatgan. Shayboniyxon xoin Ahmad Tanballarni butunlay mahaqlab tashlab Farg'ona mulkini ham tamomila egallaganidan so'nggina Bobur ona yurtidan umidini uzgan ko'rinadi.

Xo'sh, Bobur Andijondan So'xga qaysi yo'l bilan chiqib ketgan bo'lishi mumkin? O'sh, Andijon, Asaka, Marg'ilon va Konibodom, qo'yingki, butun Farg'ona mulki yog'iy inon-ixtiyorida bo'lib, har qadamda g'animlar qurutgan itday izg'ib yurgan bir payt edi. Ana shu mulohazalarga ko'ra, Bobur Andijondan Hakan darvozasidan chiqib adir oralab hozirgi Kulla qishlog'i tomon borgan.

⁶⁵ Ўша жойда. Б.7.

Asaka va Mingtepa qishlogʻlari oraligʻidan yurib, Quva hamda Margʻiloning tepa qismidagi togʻ yonbagʻirlaridan oʻtib Soʻx va Hushyorga yoʻl olgan, degan xulosaga kelimiz.

“...Isfaraning bir shaʻrisida janub sari pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur. “Sangi oyina” derlar, uzunligi taxminan oʻn qari boʻlgʻay, balandligi, baʻzi yeri kishi boʻyi, pastligi, baʻzi yeri kishining belicha boʻlgʻay, oyinadek, har nima munʻakis boʻlur”.⁶⁶

Bobur mana shu buloq suvida muborak qoʻl betlarini yuvganlar, shu havodan nafas olganlar, mana shu goʻzal togʻ manzaralariga u insonning nigohlari tushgan. Shuning uchun ham bu yerlar, Fargʻona vodiysidagi muqaddas qadamjolardan sanaladi.

Afsuski, davrlar oʻtishi bilan “Sangi oyina” Bobur nigohi tushgan holatda emas. Bu tabiiy albatta. Oradan necha asrlar oʻtib ketdi axir. Hozirda “Sangi oyina”ning yuzida qop-qora dogʻlar paydo boʻlgan, chandiqlar yuzaga kelgan. “Sangi oyina”ning qanday holatda boʻlishidan qatʻiy nazar u biz uchun muqaddasdir. Zeroki, unga Bobur Mirzoning nazari tushgan.

Boburning hushyorliklarga koʻrsatgan katta muruvvati va ixlosi haqida baʻzi bir maʼlumot bor. Unga koʻra, Bobur Afgʻonistonda oʻz hukmronligini tiklagach ham hushyorliklarni esdan chiqarmagan. Aytishlaricha, Bobur hushyorlilardan oʻn ikki kishining nomlarini aniq yozib toʻrt nafar maxsus vakili orqali shu qishloqqa joʻnatgan va ularni oʻz huzuriga taklif qilgan ekan. Ular Bobur tayinlagan oʻn ikki nafar hushyorliklarni Afgʻonistonga olib ketishgan. Bobur ularga juda kata izzat-ikrom koʻrsatib, qimmatbaho sovgʻa-salomlar hadya etgan ekan.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Bobur Fargʻona mulkini tark etib Hisorga chqib ketayotgan vaqtlarda gʻanimlar oʻzi bilan oʻzi boʻlib qolgan payt edi. Boburning oʻz atrofida bir necha kishi bilangina nochor qolganini yogʻiylar ham bilgan boʻlishi kerak, albatta. Shuning uchun ham Boburni taʼqib ostiga olmagan koʻrinadilar. Bu holni oʻz navbatida Bobur ham yaxshi bilar edi. Shu narsaga

⁶⁶ Ўша жойда.

alohida e'tabor berish kerakki, Uning g'oyat ehtiyot choralari ko'rganligi sezilib turibdi.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur g'oyat murakkab vaziyatda Hushyorga o'z atrofidagi sanoqli yaqin kishilari bilan kelgan. Hushyorliklar Boburni kata hurmat-ehtirom bilan qarshi olganlar, alohida sadoqat ko'rsatganlar. Hushyorlik zabardast yigitlardan Bobur navkarlari safiga qo'shilganlari ham bo'lgan. Hushyorda bir yil yashab Bobur maxsus choparlar yuborib butun Farg'ona mulkida bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lish bilan birga Hisorga chiqib ketish uchun qulay tog' yo'llarini ham aniqlashga muvassar bo'lgan.

So'xlik Vohidjon ota Boburning Hushyordan chiqib ketishini shunday ta'riflagan. Hushyordan chiqib ketishi mumkin bo'lgan yo'llardan biri So'x daryosining eng tor qismida. Bobur o'zi qurdirgan ko'prigidan (hozir ham "Bobur ko'prigi" deyiladi) o'tib daryo bo'ylab Jovpoya qishlog'iga borgan, so'ng So'x daryosining boshlanish qismi – Zardoli qishlog'iga o'tgan. U yog'ida Zardoli (Fedchenko) muzligi boshlanadi. Katta dovon oshgach Surxob labida joylashgan Hayit qishlog'iga brogan. Hayitdan Garm tomonga burilib Fayziobod, Kafaniyon orqali Hisorga chiqib ketishi mumkin bo'lgan.

Shu o'rinda Vohidjon ota Boburning "...yigirma uch yoshimning debochasida Hisorga yetib bordim", degan so'zlarini va bu vaqt bahorga to'g'ri kelishi haqida o'z fikrlarini bildirganlar. Unga ko'ra, Bobur So'x va Isfayram daryosi bo'ylab yurmagan degan fikrga kelindi. Chunki, yuqorida aytilgan eng og'ir yo'l va murakkab dovonlardan Hisorga faqat yilning iyul-avgust oylaridagina ot-ulov bilan o'tish mumkin, xolos. Boshqa vaqtda o'tib bo'lmaydi, hozir ham shunday sharoit mavjudligini ko'rib, bunga ishonishimiz mumkin. Hushyorda Hisorga chiqib ketadigan yo'l mavjuddir. Biri hozirgi O'sh-Batkent yo'nalishidagi yo'l bo'ylab yurish. Bobur buy o'lga yurmagan bo'lishi kerak. Chunki, bu yo'l tog' tizmalarining pastki takisliklari ya'ni g'animlarga yaqin qishloqlardan o'tagn edi. Ikkinchisi, Turkiston tog' tizmalarining yonbag'irlaridan o'tib Hushyordan Suv boshiga boriladi, Qorabuloq orqali Voruxga o'tib ketiladi.

Darhaqiqat, mana shu Hushyor - Suv boshi - Qorabuloq - Vorux yo`li Bobur uchun tanish, qulay yo`l bo`lgan. Bobur tog` etaklari bilan yurib Voruxga borgach, Laylak orqali Dahkatga o`tgan.

Dahkatdan Hisor vodiysigacha Bobur bosib bosib o`tgan yo`l haqida Tojikistonning Xo`jand viloyatida yashaydigan Abdulla Qayumov ham o`z fikrini bildirgan.

Hozirgi Ovchi daryosining yuqori qismida Dahkat qishlog`i joylashgan. Dahkat qishlog`ining teparoq qismida Boburchak degab g`oyat tabiati go`zal joy bor. Bobur ana shu joyga tushgan. Taxminan ikki yuz qadam yuqorida Qorovultepa (hozir ham shu nom bilan ataladi) degan joy bor.

Bobur kelib shu yerga tushgan, chodir tikkan tog` orasidagi burchaksimon go`zal joyni Bobur burchagi deb ataganlar. U inson Boburchakda turgan paytlarida tepaga soqchi-kuzatuvchi qo`yganlar. Shuning uchun “Qorovultepa” deb nomlangan. Hozir ham Qorovultepadan atrofdagi qishloqlar kaftdek, ravshan ko`rinib turadi. Qorovultepa shunday go`zal joyki, kishini maftun etadi. Atrof archazor, havosi musaffo. Qorovultepadan tog` yonbag`riga yo`l bor. Bobur bu buloq bo`yida bo`lib bir tup zirk o`tkazgan ekan. Yaqin-yaqinlargacha o`sib turgan ekan, uni “zirki Bobur” der edilar. 1980 – yili buloqni kengaytirish paytida “zirki Bobur” nobud bo`lgan ekan.

Bobur ana shu joyda to`xtab nafasini rostlagach Dahkat va Basmandadan chiqib Yangiariqi Bolo qishlog`idan sakkiz kilometr tepadan Ovchi daryosiga kelib chap qirg`oqqa o`tgan. Taxminan uch-to`rt chaqirimcha yo`l bossangiz Bobur toshiga duch kelasiz. O`ng tomonda biroz teparoqda supasimon usti teptekis tosh bor. Aytishlaricha, Bobur mana shu tosh ustida namoz o`qigan ekanlar.

Ovchi daryosi bo`ylab to`rt-besh kilometr yo`l yurgandab so`ng Tangi darvozasi keladi. Darvozaning kengligi taxminan yigirma metr keladi. Tangi darvozasidan chiqsa Ovchi daryosi ikki irmoqqa bo`linadi. Irmorning o`ng tomoniga uch-to`rt kilometr yurilsa Ovchi qishlogi keladi. Bobur mana shu Ovchi qishlog`idan Obburdon dovoniga irmoq bo`ylab, kun chiqishi tomonga ketgan.

Ovchi qishlog`idan irmoq bo`ylab taxminan o`n kilometr yo`l yurilsa Obburdon dovoni keladi. Obburdon dovonidan yana taxminan o`n-o`n ikki kilometr yurilgach Obburdon qishlog`i keladi. Obburdon qishlog`idan yana o`ttiz-qirq kilometr masofadan keyin Zarafshon daryosining yuqori qismiga chiqqan va Mastchoga yo`l olgan. Qorategin dovoni orqali Hisorga o`tib ketgan.⁶⁷

Xulosa qilib aytganda, Bobur Mirzo Andijonning Hakan darvozasidan chiqib Mingtepa qishlog`ining quyi qismidan Quva shahrining yuqori tomonidan o`tib So`x-Hushyor-Suv boshi-Qorabuloq-Vorux-Dahkat-Ovchi qishloqlaridan o`tib Farg`ona mulkini tark etgan. O`ziga tanish va qulay yo`llar bilan Obburdon, Qorategin dovonlaridan oshib Hisor vodiysiga o`tib ketishga muyassar bo`lgan.

Shunday qilib, Boburning ota meros Farg`ona davlati va uning poytaxti qo`ldan ketadi. Vodiya ham Temuriylar sulolasining hukmronligi batamom tugatiladi.

2.3. “Boburnoma”da Farg`onaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma`lumotlar

Biz “Boburnoma”da XV asrning oxiri – XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida mulohaza yuritadigan bo`lsak, shu narsa tarixchilarga ma`lumki, ushbu davrdagi hayotning barcha jabhalari deyarli Amir Temur davlatidan farq qilmagan.

Sohibqiron Amir Temur hayotlik chog`idayoq o`z davlatini katta-katta viloyatlarini idora qilish uchun o`z avlodlari va yaqinlariga alohida ulus qilib bo`lib bergan edi. Bu narsa manbalarda “suyurg`ol” deb ataladi.

⁶⁷Машрапов З. Шокаримов С. “Анда жоним қолди менинг...”(Бобурнинг Фарғона мулкени тарк этиши)//Андижоннома. 1996.11 июнь.

Suyurg'ol – katta hududlarni tasarruf qilish uchun alohida uluslarga ajratib berish usuli bo'lib, unda ulus boshida turgan hukmdor o'sha katta viloyatda butun aholisi-yu, yer-suviga vorisiy egalik qilish huquqini oladi.⁶⁸

Farg'ona ulusi ham uni idora qilish Abu Said Mirzo tomonidan vorisiy egalik huquqi bilan o'g'li Umarshayx Mirzoga berilgan edi. Ana shu egalik huquqini olgan Temuriyzodalar o'z uluslarini kichikroq bo'lsa ham, yaxlit bir davlat sifatida idora qilar edilar. Zahiriddin Muhammad Bobur ham otasi Umarshayxning tasodifiy o'limidan so'ng Farg'ona ulusi – davlatining vorisi sifatida ushbu an'anaviy odatga ko'ra egalik huquqini olgan edi.

Garchi XV asr o'rtalariga kelib buyuk Movarounnahr davlati idora qilish jihatidan o'shanday mayda uluslarga bo'linib taqsimlangan, aholisini esa bir viloyatda tojik, boshqasida turkey xalqlarning ayrim urug'lari tashkil qilgan bo'lsa ham, biroq umumiy qadriyat hisoblanmish fikrlash tuyg'ulari, urf-odatlar, shuningdek, muhim omil bo'lgan diniy e'tiqod va nihoyat, moddiy boylik ishlab chiqarish usullari jihatidan bir xil edilar.

Yuqorida bayon etilgan o'sha qadriyatlar majmuasi o'z davrida hukmron bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy tuzumning asosini tashkil etgan edi.

Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Boburga suyurg'ol qilib berilgan Farg'ona mulkining qonuniy vorisi edi. Bobur Farg'ona mulkida o'z ixtiyori bilan soliq va o'lponlar undirish huquqiga ega edi. Shuningdek, Sharqda tarixiy an'ana bo'lmish xalq hashari yo'li bilan sug'orish inshootlari yaratish, masjid, madrasalar, ulug' zotlarga dahmalar, ko'prik va yo'llar qurish tajribasi davom etdi.

Bobur o'z davlatini idora qilishda yirik yer egalari bo'lmish harbiy amaldor beklar, shuningdek, diniy ulamo-a'yonlarga suyanib ish ko'rar edilar. Shuning uchun, o'z atrofida o'shanday harbiy shaxslar, badavlat yer egalari, amir, beklar va ulamolardan iborat davlat tayanchi hisoblanmish tor doira tashkil qilgan suyanchiq

⁶⁸ Суюрғол ҳақидаги маълумотлар А.Абдураимов, А.М.Беленский, Б.Н.Заходер, Р.Н.Набиев, А.Ю.Якубовский каби совет тарихчиларининг асарларида мавжуд (D.A).

paydo qilgan edi. Ayrimlarini shahar, tuman boshliqlari qilib tayinlaydi, ayrimlariga esa boshqa lavozimlar berdi.

Ularning baʼzilariga davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun katta-katta ekin yerlari, bogʻ-rogʻlar inʼom qilinib, bunday inʼom usuli “tarxon” deb atalar edi.

Tarxon – davlat xazinasiga turli soliq, oʻlpon toʻlashdan ozod etilgan yerlar va boshqa mol-mulklardir.

Bulardan tashqari vaqf yerlari ham boʻlar edi. Vaqf yerlar va mulklar – diniy muassasalar hisoblanmish katta masjid va madrasalar, shuningdek, ayrim soʻfiylik jamoalari, yirik diniy arboblarning nomiga va ularning qabr-dahmalari uchun davlat tomonidan yoki mulk egalari tomonidan ixtiyoriy ravishda inʼom qilingan.

Maʼlumki, Xoja Ahror muridlaridan boʻlmish Xoja Mavlonoyi Qozi ham Fargʻona davlati hayotida muhim oʻrin egallagan shaxslardan biri hisoblanadi. Bobur ham u zotni gʻoyatda hurmat qilgan. Bu yerdagi notinchliklardan birida Andijon dushman qurshovida qolib ochlikka mahkum etilganida bu shaxs Boburga boʻlgan hurmati yuzasidan oʻz hisobidan oʻn sakkiz mingta qoʻyni soʻyib qurshovdagilarga tarqatgan.⁶⁹

Bunday eʼtiborli shaxslarni davlat tomonidan ajratilgan yer-mulki, vaqf taʼminoti boʻlmisligi mumkin emas.

Yuqorida aytilgan yer-mulk turlaridan tashqari yana “mulki ushriya” yerlari ham boʻlgan. Bunday yerlardan hosilning oʻndan bir qismi miqdorida har yili soliq undirilgan.

Boburning Fargʻona davlatida ham yerni ishlaydigan asosiy kuch kambagʻal dehqonlar edi. Yerni ishlovchi dehqon ommasining iqtisodiy ahvoli, tirikchilik tarsi koʻpincha boʻlib turgan oʻzaro urushlar tufayli ogʻir boʻlgani shubhasizdir.

Temuriylarning davlat saroyida mavjud boʻlgan lavozimlar Bobur Mirzo davrida ham saqlanib qolgan edi. Jumladan, “eshik ogʻa”, “bek atka” (yoki otabek – taxt merosxoʻrining tarbiyachisi), “qushchi”, “axtachi”, “aftobachi”⁷⁰ kabilar

⁶⁹ Жалилов. С. Бобирнинг Фарғона давлати. Б.106.

⁷⁰ Ўша жойда. Б.111.

mavjud edi. Poytaxt shahar hokimi lavozimidagi shaxs bir vaqtning o'zida "sohibi ixtiyor" ham hisoblanar edi.

Bobur davrida deyarli barcha shaharlarda, xususan, poytaxt Andijonda madaniyat, adabiy hayot ma'lum darajada jonlanganini ko'ramiz. Avvalo, shuni aytish kerakki, fan, madaniyat, odob-ahloq masalalari islom dini va uning qonunlari talablariga bo'ysundirilgan edi.

Deyarli barcha Temuriyzodalarning pirlari bo'lgan. Jumladan, "Boburnoma"da yozilganidek, Boburning otasi Xoja Ubaydullo Ahrorga murid bo'lgan. Boburning piri esa, Xoja Mavlonoyi Qozi edi.

Bundan tashqari, ushbu asarda "Hidoya" asari va uning muallifi haqida ham to'xtalib o'tilgan. "Boburnoma"da Naqshbandiya sulukining Farg'onadagi yirik vakili Said Ahmad Jaloliddin Kosoniy "Mahdumi A'zam" haqida ham ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsa-da, Bobur uni hurmat qilgani ma'lum.

"Boburnoma"da Andijon uchun bo'lgan eng so'nggi janglar munosabati bilan Bobo Tavakkul nomi bir marta tilga olinadi. Boburning kichik tog'asi yordamga kelib, o'z qo'shinlari bilan Andijon atrofidagi Bobo Langariga yaqin joyda qarorgoh qurgani aytiladi.

Bundan tashqari, asarda Mavlono Yusuf nomi "Yusuf Xoja" deb berilib, uning go'zal kishi ekani va musiqada ham mashhurligi ta'riflanadi.⁷¹

Demak, bunday qulay madaniy va ma'naviy muhit yaratishda, tabiiyki, Boburning o'zi katta rol o'ynadi. U yosh bo'lishiga qaramay ilm, fan va she'riyatdan bahra olgan iqtidorli davlat arbobi sifatida ana shunday muhitda o'zi ham barakali ijod qildi va nomi tarixda muhrlanib qoldi.

⁷¹ Ўша жойда. Б.125.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” nomli memuar asari oʻz davrida yaratilgan mukammal asar hisoblanadi. Ushbu asar Movarounnahr, Afgʻoniston va Hindistondagi xoʻjalik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayotning keng koʻlamli manzarasini oʻzida aks ettirgan.

Muallif oʻzining oʻn ikki yoshidagi hayotidan soʻz ochib, koʻzi bilan koʻrgan marsalar va voqealar haqida batafsil maʼlumot beradi.

“Boburnoma”da ichki va tashqi siyosatning qanday darajada ekanligiga va qay yoʻsinda olib borilgani haqida yetarli maʼlumotlar keltirilgan.

Bu asar shunisi bilan ajablanarliki, muallif oʻzi koʻrgan narsalarni hech qanday mubolagʻalarsiz va ogʻishlarsiz haqqoniy tasvirlagan. Shu bilan bir qatorda, bu asar orqali biz boshqa asarlarda uchramaydigan oʻsha davrda yashagan shaxslar haqida ham imkon boricha yetarli maʼlumotlarga ega boʻlamiz.

“Boburnoma” asarini oʻrganish natijasida biz bu kitobda berilgan geografik joylar, hayvonot dunyosini oldin qanday holatda boʻlganini bevosita bilib olishimiz mumkinligi ham bu asarning katta yutuqlaridan biridir.

Tahlil qilingan memuar manbada keltirilgan xalqlarning urf-odatlarini, diniy eʼtiqodi, dunyoqarashi, mehnatkashlarning maishiy turmushi haqidagi maʼlumotlar etnografik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda ular xalq ommasining ogʻir hayotini aks ettiradi.

Zahiriddin Muhammad Boburnig madaniy hayot, ilm-fan, musiqa va sanʼatning holati toʻgʻrisida maʼlumotlari XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida xalqimizning maʼnaviy hayotini teran anglashga koʻmak beradi.

Bobur keltirgan juda koʻp hayotiy lavhalardan oʻquvchi oʻsha zamonda qanaqa tuzum hukm surganini ham bilib oladi. Xalq haq-huquqsiz boʻlib, gʻanimlar ularga jabr-zulm oʻtkazganlar. Oʻsha davrda ham baʼzi ziyoli shaxslar bunga jim qarab turmadilar. Ular xalq bilan birgalikda imkon boricha ularga qarshi chiqdilar.

Asarda joy nomlari haqida ma'lumotlar berilganda muallif hozirgi zamon talabiga mos ravishda ma'lumotlarni tartib bilan berilgani ham buning qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi

Boburning o'z vataniga bo'lgan muhabbati, uni jon dilidan sevishi bugun ozod bo'lgan O'zbekistonimiz dilidan chaqiriqdek tuyuladi. Bobur ongiga, jismiga singib ketgan vatanparvarlik hissi, fazilati uning hozirgi avlodlariga meros bo'lib qoldi.

Yuqoridagi fikrlarga yakun yasab aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari g'oyat muhim manba bo'lib, u o'zida Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonning XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi ahvolini keng tarzda aks ettiradi. Hech qanday mubolag'asiz, bu asar o'sha davr hayotining deyarli barcha qirralarini yoritib beruvchi qomusiy manba, deb aytish mumkin. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlarda undan keng ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т: Маънавият, 2008.
- 1.2. Каримов И.А. Илму маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган танатали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи. 2006 йил 3 ноябрь.
- 1.3. Мирзиёев Ш.М. Фан ютуқлари - тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. 2016. 31 декабрь.

II. Adabiyotlar

- 2.1. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Т.: Ўқитувчи, 2001.
- 2.2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарқ, 2001.
- 2.3 Азимжанова С. А. Индийский диван Бабура. -Т.: Фан, 1966.
- 2.4. Акрамов З. М. Фарғона водийси. -Т.: 1957.
- 2.5. Жалилов С. Фарғона суғорилиш тарихи. – Т., 1973.
- 2.6. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 3-kitob. Т.: Sharq, 2010.
- 2.7. Бобур З.М. Бобурнома. -Т.: Юлдузча, 1990.
- 2.8. Бобур энциклопедияси. -Т.: Sharq, 2014.
- 2.9. Жалилов С. Бобирнинг Фарғона давлати. -Т.: Фан, 1995.
- 2.10. Жалилов С. Бобир ва Андижон. -Т.: Ўзбекистон, 1993.
- 2.11. Жалилов С. Андижон. -Т.: Ўзбекистон, 1989.
- 2.12. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. -Т.: Шарқ, 2006.
- 2.13. Мирзо Ҳайдар. Тарихи Рашидий. –Т.: Фан, 1996.
- 2.14. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. -Т.: Ғ.Ғулом, 1989.
- 2.15. Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. -Т.: O'zbekiston, 2011.
- 2.16. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т.: 2000.

III. Davriy matbuot materiallari

3.1. Машрапов З. Шокаримов С. “Анда жоним қолди менинг...”(Бобурнинг Фарғона мулкини тарк этиши). Андижоннома 1996.11 июнь.

IV. Internet saytlari

- 4.1. www.eurasia.org.ru.
- 4.2. www.wikipedia.org.
- 4.3. www.history.ru
- 4.4. <http://www.philos.msu.ru/fac/history/>
- 4.5. <http://www.auditorium.ru>
- 4.6. [www. ziyonet.net](http://www.ziyonet.net).
- 4.7. <http://www.dissercat.com>
- 4.8. www.ziyouz.com